



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

210100, Navoiy sh., IslomKarimovsh.k 77 A, tel: (79) 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

2024 - yil 19 - fevral

VI-68-14-5-0-K/24

Navoiy viloyati hokimligi

Navoiy viloyatida tashqi reklama vositalari (konstruksiylar) va axborot aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli, 2020-yil 20 fevraldagi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, viloyatda tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo'nalishda qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlash hamda sohaga oid munosabatlarni tartibga solish maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 6 va 24-moddalari asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i A. Muxammadiyevning viloyatda tashqi reklama vositalari (konstruksiylar) va axborot aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli qaroriga muvofiq, tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) joylashtirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash, o'rnatish chizmalarini ko'rib chiqish, joylashtirish tartibi hamda ularga qo'yiladigan talablar xalq deputatlari viloyat Kengashida muhokama qilinishi belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalari 1-ilovaga muvofiq;

Navoiy viloyatida tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) hamda transport vositalariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig'imlar miqdori 2-ilovaga muvofiq;

Tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) tashqi reklamani joylashtirish uchun yig'imlar miqdoriga qo'llaniladigan koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq;

Tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) tashqi reklamani o'rnatish uchun shartnomaning namunaviy shakli 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (T. Atamurodov), Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining viloyat hududiy boshqarmasi (A. Muxammadiev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda:

tashqi reklama va axborot ob'ektlarining (konstruksiylarining) belgilangan tartiblarga muvofiq o'rnatilganligi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishini;

tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmasi hamda unga kiritiladigan o'zgartishlarni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishini;

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda tegishli tashkilot va idoralar vakillaridan iborat maxsus ishchi guruhlar tuzgan holda kamida olti oyda bir marta barcha turdagi tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) belgilangan talablarga muvofiqligi yuzasidan xatlovdan o'tkazib borilishini hamda joylashtirilgan tashqi reklama va axborot ob'ektlarining (konstruksiylarining) qonunchilik talablariga muvofiqligini o'rganib borilishini ta'minlasin.

5. Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmalari 5-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmalari tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga kiritilsin.

6. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2020-yil 12-iyundagi "Navoiy viloyatida tashqi reklama ob'ektlariga tashqi reklamani joylashtirish uchun

yig'imler miqdorini belgilash to'g'risida"gi 6/55-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror "Do'stlik bayrog'i" va "Знамя дружбы" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Navoiy viloyatida tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) hamda transport vositalariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig'imler miqdori mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari T. Atamuradov va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (G'. Aliev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



N.Tursunov

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-68-14-5-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiysalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalarini

Ushbu Qoidalar O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-son qarori, 2020-yil 20-fevraldagi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-sonli qarori hamda boshqa tashqi reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatish bilan bog'liq sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari muvofiq, Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiysalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

I.Umumiy qoidalar

1. Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiysalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalarini Navoiy viloyati uchun tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiysalarini) umumiy joylashtirish, shu jumladan, binolar tashqi qismida o'rnatish tartibini, shuningdek, shahar yoki hududlar ijtimoiy faolligini, tarixiy-madaniy qiymatini hisobga olgan holda o'rnatiladigan reklama ob'ektlarining (konstruksiysalarining) turlari va ko'rinishlarini, dizaynerlik yechimlari va reklama ob'ektlari (konstruksiysalari) o'lchamlarini tavsiiyaviy tartibda belgilab beradi.

Mazkur Qoida tashqi reklama ob'ekti bo'lmagan texnik vositalarni joylashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solmaydi, bunday ob'ektlarga:

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risida axborot joylashtirilgan binolar (konstruksiysalar) tashqarisidagi ma'lumot taxtalari va boshqa texnik vositalar;

reklama hususiyatiga ega bo'lmagan ma'lumotlar taxtasi;

binolar (inshootlar) tashqarisida va yer osti piyodalar o'tish joylarida (reklama hususiyatiga ega bo'lmagan) faqat afisha va e'lonlar joylashtirish (tarqatish) uchun mo'ljallangan texnik vositalar;

savdo ob'ekti yoki xizmat ko'rsatish ob'ekti ichki tarafida mahsulotni saqlash, ko'chirish, qadoqlash, namoyish etishga mo'ljallangan reklama ko'rinishidagi mebel, inventar, asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalar kiradi.

Tashqi reklama va axborot ob'ektlarida (konstruksiysalarida) tashqi reklama joyi pasportini tekshirish imkonini beruvchi maxsus QR-kod bo'lishi shart.

2. Navoiy viloyati hududida tashqi axborot ko‘rinishidagi reklama ob‘ektlari (konstruksiylari), yerda, hududlarda, to‘xtash joylarida, davlat va xususiy binolarda, ma‘lumot yetkazish yoki jamoatchilik e‘tiborini mahsulotlar (xizmatlar), ob‘ektlar yoki konstruksiylar, tadbirlar, tashkilotlar hamda tijorat faoliyatiga yoki turli xil tijorat xabarlariga qaratish uchun ishlatiladi.

3. Ushbu Qoidada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

afisha - konsertlar, spektakllar, sirk dasturlari va boshqa madaniy-ko‘ngilochar tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumot yetkazuvchi vosita;

vitrajlar - deraza yoki eshiklar va ularning atrofiga, binolar poydevoriga, tik turuvchi, ramka (ishlatilgan hollarda) va shaffof sirtlarga, shuningdek, yopishqoq plyonkadan (ishlatilganda) foydalangan holda o‘rnatiladigan konstruksiylar;

shahar hududi (aholi punkti yoki boshqa hududlarning muhiti) - ma‘muriy-hududiy birlik chegaralari bilan belgilangan, aholining yashashi va faoliyat yuritishi uchun muhit bo‘lib, ishlab chiqarish, ijtimoiy, muhandislik, transport infratuzilmasi, yer usti va osti moddiy ob‘ektlarini o‘z ichiga oladi va tashqi reklama ob‘ektlarini (konstruksiylarini) joylashtirish uchun tijorat ahamiyatiga ega bo‘ladi;

ma‘lumot taxtasi - tashkilotning nomi (firma nomi), uning alohida bo‘linmasi, familiyasi, ismi, otasining ismi (yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun), uning ishlash tartibi, axborot maydonida bittadan ko‘p bo‘lmagan ma‘lumotni joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va ishlatiladigan, tegishli tashkilot ishlaydigan binoga (inshootga) kirish yoki eshikning yonidagi bino (inshoot) ustiga o‘rnatilgan texnik vosita;

axborot maydoni - reklama hisoblanmaydigan axborotlar kiritish (harakatli tasvir) uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan texnik vosita yuzasi;

yorug‘lik qutisi - tashqi reklamani joylashtirish va undan foydalanish uchun maxsus ishlab chiqilgan texnik vosita bo‘lib, yer maydonida, bino (inshoot) yuzasida, to‘siqlar yoki alohida ustunlarda qotiriladi va ichki yoritgichli bir yoki bir nechta reklama maydonlariga ega;

tashqi reklama ob‘ekti (konstruksiyasi) joylashgan joy - tashqi reklama ob‘ekti (konstruksiyasi) joylashgan ko‘chmas mulk, shuningdek, tashqi reklama ob‘ekti (konstruksiyasi) joylashgan (joylashtirilishi kerak bo‘lgan) havo bo‘shlig‘i;

yer usti pannosi - tashqi reklamani joylashtirish uchun mo‘ljallangan va foydalaniladigan texnik vosita bo‘lib, yer (yo‘l) yuzasida tasvirlanadigan reklama maydoniga ega;

devor pannosi - tashqi reklamani joylashtirish uchun maxsus mo‘ljallangan va foydalaniladigan texnik vosita bo‘lib, osma yozuvlarsiz bino tashqarisidagi panjaraga yoki bino (inshoot) devori yuzasiga mahkamlanadi;

e‘lon - yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar hamda jamoatchilik e‘tiborini jalb qilish maqsadida qoldirilgan, reklama tusiga ega bo‘lmagan xabar to‘g‘risidagi qisqacha ma‘lumot;

tashqi reklama va axborot ob‘ektlari (konstruksiylari) - tashqi reklamani

joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan vositalar, shuningdek, axborotni aholiga yetkazish vazifasini bajaruvchi texnik vositalar (konstruksiylalar), pilonlar, ko'chma reklama konstruksiylalari (ustun, plakat), prizmatronlar, proeksiyaviy konstruksiylalar, bilbordlar, videoekranlar, elektron displeylar, axborot ob'ektlari va boshqa texnik vositalar;

tashqi reklama operatori - tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiylalari) reklama maydonlarini uchinchi shaxs tashqi reklamasini joylashtirish (tarqatish) uchun taqdim etuvchi reklama tarqatuvchi;

reklama joyining pasporti - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari tomonidan beriladigan hujjat bo'lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylalarini) unda ko'rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga mulk shaklidan qat'i nazar, o'rnatish huquqini tasdiqlaydi;

pilon - tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va foydalaniladigan texnik vosita bo'lib, ushbu texnik vositaning o'zaro biriktirilgan karkaslari o'lchamidagi tekis bir yoki ikki reklama maydoniga ega;

ko'chma reklama konstruksiya (ustun, plakat) - binoning (inshootning) yer maydonida, ayvonida, balkonida yoki tomida joylashgan, ammo ularga o'rnatilmagan va bitta yoki bir nechta reklamaga ega tashqi reklama joylashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan va foydalaniladigan texnik vosita;

prizmatron - tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va ishlatiladigan, bir yoki bir nechta reklama maydonlariga ega bo'lgan, prizmalarning harakati tufayli reklamaning avtomatik o'zgarishini (aylanishini) ta'minlaydigan texnik vosita;

proeksion konstruksiylalar - tasvirlarni yerga, devor tekisligiga va hajmda takrorlashga mo'ljallangan konstruksiylalar;

tashqi reklama ob'ektini (konstruksiylasini) joylashtirish - tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va ishlatiladigan texnik vositalarni o'rnatish yoki tashqi reklamani joylashtirishga maxsus mo'ljallanmagan, biroq uni joylashtirishda (tarqatishda) ishlatiladigan texnik vositada joylashtirish (tarqatish);

tortib bog'lanadigan reklama ob'ekti - tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan va binolar (konstruksiylalar), alohida turgan ustunlar, bino tashqarisidagi to'siqlar o'rtasida o'rnatilgan bir yoki ikki reklama maydonlari ega bo'lgan texnik vosita;

reklama maydoni - tashqi reklama, shu jumladan vaqtincha biriktirilgan elementlarning sirtini qo'llash (ko'paytirish) uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan tashqi reklama ob'ektining (konstruksiylasining) yuzasi;

mahsulot, ish, xizmat namunasi - mahsulot, ish natijasi, natural ko'rinishdagi xizmatlar, uning tasviri va maketi yoki tashqi ko'rinishiga ko'ra aynan o'xshash tovarlar, ishlar natijasi, xizmatlar nusxasi;

kichik formatdagi tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya) - 2,19 kv. metrgacha xajmga ega bo'lgan ob'ektlar;

o'rta o'lchamdagi tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya) - hajmi 2,2 dan 12 kv. metrgacha bo'lgan ob'ektlar;

katta formatdagi tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya) - hajmi 12 dan 18 kv. metrgacha bo'lgan ob'ektlar;

juda katta formatdagi tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya) - hajmi 18 kv. metrdan ortiq bo'lgan vosita;

bayroqli konstruksiya - tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun maxsus ishlab chiqilgan texnik vosita bo'lib, yerga, binoning (inshootning) yuzasiga, alohida turgan ustunga yoki bino (inshoot) tashqarisidagi to'siqqa, shahar yorug'lik ustunlariga qotiriladigan va flagshtokka mahkamlangan mato ko'rinishidagi bir necha reklama maydonidan tashkil topgan yaxlit kompozitsiya hisoblanadi;

bilbord - tashqi reklama joylashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan va foydalaniladigan, yer uchastkasida joylashtirilgan va bir yoki bir nechta tekis reklama maydonchalariga ega bo'lgan texnik vosita;

video ekran - tashqi reklamani joylashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan va foydalaniladigan, yerga, binoning (inshootning) yuzasiga, alohida turgan ustunga yoki bino (inshoot) tashqarisidagi to'siqqa qotiriladigan va displey yoki ekran ko'rinishidagi reklama maydoniga ega bo'lgan texnik vosita;

elektron displeylar - yuqori texnologiyali konstruksiyalar bo'lib, yorug'lik diodlari, yorug'lik lampalari va boshqa yorug'lik manbalari hisobiga ekranda tasvirlar harakatini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

4. Navoiy viloyatida quyidagi reklama va axborot konstruksiyalarini o'rnatishga ruxsat etiladi:

peshtaxta - bino va inshootlarning oldi yoki tashqi tomonida, faqatgina korxona joylashgan va (yoki) o'z faoliyatini amalga oshiradigan manzilda, korxona to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan ma'lumot konstruksiyasi;

axborot ko'rsatkichi - alohida turadigan kichik formatdagi reklama konstruksiyasi bo'lib, ob'ekt nomi va uning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish uchun foydalaniladi;

axborot konstruksiyasi (axborot stendi, e'lonlar doskasi) - aholiga ma'lumot yetkazish funksiyasini bajaruvchi konstruksiya bo'lib, reklama hisoblanmaydi. Axborot konstruksiyalariga, shuningdek, alohida joylashgan va belgilangan talablarga javob beruvchi konstruksiyalar ham kiradi.

Reklama konstruksiyalari:

alohida joylashgan statsionar yoki mobil reklama konstruksiyalari;

bino, qurilish, inshootlardagi reklama konstruksiyalari;

vaqtincha reklama konstruksiyalari.

5. Alohida joylashgan statsionar reklama konstruksiyalari yer uchastkalarida joylashtiriladi hamda quyidagi turlarga bo'linadi:

shitli reklama konstruksiyasi - turli formatdagi reklama konstruksiyalari bo'lib, reklama joylashtirish uchun tashqi sirtga ega va betonli asos, karkas va axborot uchun maydondan tashkil topgan.

Reklama konstruksiyasi axborot maydoni o'lchami uning tomonlari umumiy maydoni bilan aniqlanadi.

Shitli reklama konstruksiyasining axborot maydoni quyidagicha bo'lishi mumkin:

axborot maydoni sirti harakatsiz tasvirlar, hamda tashqi va ichki yoritgichlarga ega bo'lishi;

tasvirlar dinamik o'zgaruvchan tizimi yoki harakatli panellar tizimi — prizmatronlar, shuningdek, boshqa tasvirlar harakati dinamik tizimi orqali reklamani namoyish qilish;

video ekranli (elektron) konstruksiyalarda reklamani namoyish qilish (elektron axborot maydoni) (LED monitorlari va boshqalar);

pillar - o'rtacha formatdagi alohida turadigan reklama konstruksiyasi bo'lib, axborot joylashtirish uchun tashqi sirtga ega va betonli asos, karkas va axborot uchun maydondan tashkil topgan. Reklama konstruksiyasi axborot maydonining o'lchami 3 m x 1,4 metrni tashkil etadi. Pillar axborot maydoni uning uch tomoni yig'indisi bilan aniqlanadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydonlari sirtlarida harakatsiz tasvirlardan foydalanish yoki tasvirlar harakati dinamik tizimi (roller tizimi) dan foydalanish orqali o'rnatishga ruxsat beriladi;

pilon - o'rtacha formatdagi alohida turadigan reklama konstruksiyasi bo'lib, betonli asos, karkas va axborot uchun maydondan tashkil topgan. Bir tomonli va 2 tomonli pilonlarga ruxsat beriladi. Pilon har bir tomonining axborot maydoni o'lchamlari 2,8 x 1,4 metrni tashkil etadi. Pillar axborot maydoni uning barcha tomonlari yig'indisi bilan aniqlanadi;

siti-format - kichik formatdagi alohida turadigan reklama konstruksiyasi bo'lib, betonli asos, karkas va bir yoki ikki axborot maydonidan tashkil topadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni 1,8 x 1,2 metrni tashkil etadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni uning ikki tomoni yig'indisi bilan aniqlanadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydonlari sirtlarida harakatsiz tasvirlardan foydalanish yoki tasvirlar harakati dinamik tizimi (roller tizimi) dan foydalanish orqali o'rnatishga ruxsat beriladi;

siti-format plyus - o'rta formatdagi alohida turadigan reklama konstruksiyasi bo'lib, betonli asos, karkas va bir yoki ikki axborot maydonidan tashkil topadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni 4,0 x 2,0 metrni tashkil etadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni uning ikki tomoni yig'indisi bilan aniqlanadi. Reklama konstruksiyasining axborot maydonlari sirtlarida harakatsiz tasvirlardan foydalanish yoki tasvirlar harakati dinamik tizimi (roller tizimi) dan foydalanish orqali o'rnatishga ruxsat beriladi;

senior (siti-bord) - o'rta formatdagi alohida joylashgan, bir yoki ikki tomonli axborot maydonidan tashkil topgan, har bir tomonning axborot maydoni o'lchamlari eni 3-6 metr va balandligi 2-3 metr bo'lgan reklama konstruksiyasi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni uning barcha tomonlari yig'indisi bilan aniqlanadi;

Shitli reklama konstruksiyasining axborot maydoni quyidagicha bo'lishi mumkin:

axborot maydoni sirti (statik axborot maydoni) harakatsiz tasvirlar, hamda tashqi va ichki yoritgichlarga ega bo'lishi.

tasvirlar dinamik o'zgaruvchan tizimi (roller tizimi (skroller axborot maydoni) yoki harakatli panellar tizimi (prizmadinamikli axborot maydoni) - prizmatronlar, shuningdek boshqa tasvirlar harakati dinamik tizimi) orqali reklamani namoyish qilish;

video ekranli (elektron) konstruksiyalarda reklamani namoyish qilish (elektron axborot maydoni) (LED monitorlari va boshqalar);

stela - yirik formatdagi, bir yoki bir nechta tomonli, aylanali gorizontal joylashgan axborot maydonlaridan tashkil topgan, umumiy axborot maydoni o'lchamlari eni 1,2 - 2 metr va balandligi 3 - 15 metr bo'lgan alohida vertikal turuvchi reklama konstruksiyasi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni uning barcha tomonlari yig'indisi bilan aniqlanadi;

bayroqli kompozitsiya - yer maydonida o'rnatiladigan reklama konstruksiyasi bo'lib, betonli asos, flagshtok (ustun) va yumshoq matodan yuborat bo'ladi. Reklama konstruksiyasining axborot maydoni mato barcha tomonlari yig'indisi bilan aniqlanadi;

afishali stend - piyodalar yo'lakchasi yoki unga tutash hududdagi gazonlarda joylashgan, bir yoki ikki axborot maydonli, betonli asos, karkas va axborot maydonidan tashkil topgan reklama konstruksiyasi bo'lib, ushbu axborot maydonlari reklama va faqatgina teatr, kinoteatr repertuarlari, sport, ijtimoiy, madaniy-xordiq, sport-sog'lomlashtirish tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan;

katta hajmli konstruksiya - yirik elementlar ko'rinishidagi, notekis yuzalarga ega nostandart reklama konstruksiyasidir. Individual loyihalar bo'yicha amalga oshiriladi. Katta hajmli konstruksiya axborot maydoni hisob-kitoblar asosida aniqlanadi;

jamoat transporti harakati to'xtash joylari tarkibiga kiruvchi reklama konstruksiyasi - jamoat transporti harakati to'xtash joylari tarkibida bajarilib, yer maydonida o'rnatilgan reklama konstruksiyasi hisoblanadi. Pavilon konstruksiyasining xususiyatlaridan kelib chiqib, bir yoki ikki axborot maydonlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Konstruksiyani bir yoki bir necha tasvirlar, monitorlar asosida o'rnatish, shuningdek, to'xtash joyini to'liq reklama konstruksiyasi sifatida rasmiylashtirishga ruxsat etiladi.

Shahar mebel ob'ektlari - kioskalar, o'rindiqlar, qutilar va arxitektura muhitining boshqa elementlari.

6. Bino, imorat, inshootlarida joylashtirilgan reklama konstruksiyalari quyidagi turlarga bo'linadi:

brandmauerli panno - bino, imorat va inshootlar devorlari yuzasida joylashtiriladigan yirik formatli bir tomonli reklama konstruksiyasi bo'lib, qotirish elementlari, karkas va axborot maydonidan tashkil topgan bo'ladi. Brandmauerli pannoni bino, imorat va inshootlar karnizidan qisman teparoqda joylashtirishga ruxsat etiladi.

Tasvirlar dinamik o'zgaruvchan tizimi orqali reklamani namoyish qilish bilan brandmauer pannoni o'rnatish va ishlatishga ruxsat etiladi;

tom usti konstruksiyasi - individual loyiha asosida bajarilgan bino, imorat va inshootlar karnizlaridan to'liq yuqorida joylashtirishga ruxsat etiladigan yirik va alohida belgilar (xarflar, raqamlar, san'at elementlari, logotoplar) ko'rinishidagi yoki yuzaki reklama konstruksiyasi bo'lib, qotirish elementlari, karkas va axborot maydonidan tashkil topgan bo'ladi. Axborot maydoni o'lchami hisob-kitob asosida aniqlanadi.

Shitli reklama konstruksiyasi reklama joylashtirish uchun tashqi yuzaga ega bo'lgan turli formatdagi reklama konstruksiyalari bo'lib, karkas va axborot maydonidan tashkil topgan bo'ladi.

Reklama konstruksiyasi axborot maydoni o'lchamlari uning barcha tomonlari yig'indisi sifatida aniqlanadi.

media fasad - bino, imorat va inshootlar devorlari yuqori qismida yoki devor sirtiga mos metall karkaslarda (bino, qurilish va inshootlar oynalarida medi fasad o'rnatilgan hollarda) joylashtiriladigan individual yorug'lik o'tkazuvchi reklama konstruksiyasi bo'lib, axborot materiallarini namoyish etish imkonini beradi;

vitraj - oyna, eshik va bino arkalarida o'rnatiladigan konstruksiyasidir.

markiza - vitrina, imorat, inshootlar va binoga kirish eshiklari tepasini himoyalash vositasida reklama ma'lumotlarini aks ettirish orqali bajarilgan reklama konstruksiyasidir.

7. Vaqtincha reklama konstruksiyalari quyidagi turlarga bo'linadi:

yo'l to'siqlari pannosi - madaniy-maishiy, bayram yoki sport tadbirlarini o'tkazish vaqtida sport trassalari, shahar yo'llari bo'yida statsionar yo'l to'siqlarida joylashtiriladigan reklama konstruksiyasidir. Reklama konstruksiyasi balandligi to'siq ustuni o'lchamlaridan ortiq bo'lmasligi kerak. Reklama konstruksiyasi axborot maydoni hisob-kitoblar yordamida aniqlanadi.

katta hajmli konstruksiya - yirik elementlar ko'rinishidagi, notekis yuzalarga ega nostandart reklama konstruksiyasidir. Individual loyihalar bo'yicha amalga oshiriladi. Yirik-kenglik konstruksiyasining axborot maydoni hisob-kitoblar asosida aniqlanadi;

qurilish o‘rmonlari, yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ob’ektlar va fasadlar pannosi - qurilish va rekonstruksiya jarayonida vaqtincha joylashtiriladigan reklama konstruksiyasi;

mobil reklama konstruksiyasi - tashkilotlar ko‘rsatayotgan xizmatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘zida aks ettiruvchi va ushbu Qoidaga muvofiq foydalaniladigan ko‘chma konstruksiya.

8. Tashqi reklama ob’ektlariga, shuningdek, maxsus ishlab chiqilmagan, lekin tashqi reklama joylashtirish (tarqatish) uchun ishlatiladigan (skameykalar, soyabonlar, chodirlar, kichik chakana savdo tarmoqlari punktlarida o‘rnatilgan to‘siqlar, boshqa to‘siqlar, binolar yuzasi va boshqalar) ob’ektlari, qurilish to‘rlari, do‘kon oynalari, jamoat transportida to‘xtash joylari, sharlar va boshqalar kiradi.

9. Tashqi reklama yuridik yoki jismoniy (yakka tartibdagi tadbirkorlar) shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

10. Viloyat hududida o‘rnatilgan tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiyalari) ma’muriy hududdagi mavjud binolarning tashqi me’moriy ko‘rinishiga mos kelishi kerak.

Tashqi reklama ob’ektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatish chizmasiga muvofiq bo‘lishi kerak.

11. Tashqi reklama va uning vositalarining quyidagi holatlariga yo‘l qo‘yilmaydi:

muvofig texnik holatda emasligiga, binoning (inshootning) me’moriy ko‘rinishiga va hududdagi qurilish ishlariga salbiy ta’sir etilishiga;

yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalari bilan o‘xshash ko‘rinishga, tasvirga, ovoz effektiga ega bo‘lmasligi, ularni ko‘rishga ta’sir qilmasligi, shuningdek, yo‘llarda transport vositalari, piyoda yoki boshqa bir ob’ekt bor ekanligi to‘g‘risida taassurot uyg‘otmasligi va shu bilan harakat xavfsizligi darajasini pasayishiga;

texnik normativ-xuquqiy hujjatlar yoki qonunchilikdagi boshqa hujjatlar bilan belgilangan shovqinning mumkin bo‘lgan darajalaridan oshish;

aholi uylari oynalariga bevosita yaqinlikda joylashish, xonadon egalari dam olishlariga xalaqit berishi, tashqi reklama o‘z yorug‘ligi va aksi bilan iste’molchilarga ortiqcha noqulayliklar tug‘dirishi;

yo‘l-muhandislik inshootlarida tashqi reklama ob’ektlarini (konstruksiyalarini) o‘rnatishda yo‘l-muhandislik inshootlari o‘tish yo‘llari qisqarishiga;

temir yo‘l liniyalari ajralgan joylarda, shuningdek, reklama hududi bo‘lmagan maydonda o‘rnatilishi (joylashtirilishi);

avtomobil yo‘llari, ko‘chalar, istirohat bog‘lari, xiyobon va piyodalar yo‘lagi yuzasida qurilish materiallari, bo‘yoqlar, yo‘l chizmalaridan nomuvofiq foydalangan holda joylashtirilishiga;

tashqi reklama ob’ekt (konstruksiya)larini inshootlarga qotirish va shu orqali ularning mustahkamliligiga zarar yetkazish;

ushbu Qoidaga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) va uning vositalarini o'rnatish talablarini buzgan holda o'rnatish.

12. Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) ularga reklama yoki axborot xabari yoki tasvirni joylashtirmasdan o'rnatishga va foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

II. Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish

13. Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

reklama joyining pasporti;

texnik xavfsizlik talablariga muvofiq o'rnatilganligi haqida tegishli litsenziyaga ega bo'lgan vakolatli tashkilotning joriy yildagi xulosasi mavjud bo'lganda.

Transport vositalarining harakatlanish zonasida ish olib borishda, reklama konstruksiyasi egasi reklama konstruksiyasini o'rnatish yoki demontaj qilishda yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari kerak.

14. Tashqi reklamani yo'l chetidagi maxsus hududda o'rnatishga ruxsat etiladi, bunda ajratuvchi yo'laklarda va yo'l chetidan 1 metr va undan kam bo'lgan masofada joylashgan tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalar) haydovchi va piyodalar uchun ko'rishni cheklamasligi lozim.

Yo'l chetida alohida turuvchi tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatishda, konstruksiya chetlari yo'lning qatnov qismidan ortiq chiqmasligi kerak.

Avtomobil yo'llari oralig'ida joylashgan tashqi reklama ob'ektlarining (konstruksiyalarining) gorizonta uzunligi yo'llar oralig'idagi masofa uzunligidan oshmasligi kerak.

Reklama maydonining pastki chetidan yo'l qoplamasi yuzasigacha bo'lgan masofa 5 metrdan kam bo'lmasligi va texnik vosita konstruksiyasi transport vositalari xaydovchilari uchun ko'rishni cheklamasligi lozim.

Quyidagi joylarga tashqi reklamaning alohida turgan ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish taqiqlanadi:

trolleybuslarning aloqa tarmoqlari mavjud bo'lganda, ularning yo'lga chiqish qismiga;

qatnov qismida va piyodalar yo'lakchalarida;

yo'l va ko'chalar chetlarida 5 metrdan past balandlikda;

bevosita tunnellarga kirish va chiqish joylari yonida va ulardan 5 metrdan yaqin bo'lmagan masofada.

15. Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari ostida tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 dekabrda 1050-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr

tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini muhofaza qilish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

16. Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) va axborot ma'lumotlarini bino, inshoot yoki ularning majmuasida (tom, fasad, devorlar) o'rnatish binolarning me'moriy elementlariga, me'moriy yechimlariga, shaharsozlik va ushbu binolarning mulkdorlariga ziyon yetkazmasdan amalga oshirilishi, ularning barcha huquq va qonuniy manfaatlarini buzmasligi, aholining to'laqonli yashash muhiti, tarixiy va madaniy merosi va me'moriy landshaftini saqlash va shakllantirishga hissa qo'shishi kerak.

Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) binolar, konstruksiylar va konstruksiylarning tashqi devorlariga yoki tomlariga joylashtirishda ushbu ob'ektlarning asosiy konstruksiylari elementlari texnik holatini hisobga olish kerak.

Binolar, konstruksiylar, yoki ularning majmualari (tom, fasad, devorlar) yuzasiga tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish joriy davrda ushbu ob'ektlarni o'z balansida saqlovchi shaxs bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) bozor (savdo markazlari) va savdo maydonlari, shuningdek, boshqa muassasalarning ochiq hududlarida o'rnatish ushbu Qoida talablariga muvofiq konstruksiya egasi va ularning balans bo'yicha egalari bilan o'zaro kelishuvi orqali amalga oshiriladi.

17. Reklama konstruksiyasini o'rnatish (montaj qilish), undan foydalanish va olib tashlash bo'yicha ishlar konstruksiya egasi tomonidan yer uchastkasi, bino va boshqa mulkning mulkdori (balansda saqlovchisi) yoxud ushbu mulk egasi tomonidan vakolatlangan shaxs bilan, elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanganda esa qo'riqlanadigan zona hududida elektr ta'minoti liniyalari va tashqi yoritish tarmoqlari uskunalaridan foydalanuvchi tashkilot bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

18. Reklama ob'ekti egasining reklamasi hisoblanmaydigan, bozorlar (savdo markazlari), yoqilg'i quyish shoxobchalari, chakana savdo do'konlarida va boshqa ob'ektlarda o'rnatilgan va shahar muhitiga qaratilgan reklama bezaklari tashqi reklama hisoblanadi va mazkur Qoidaga muvofiq rasmiylashtirilishi lozim.

19. O'lchami 500 kv. santimetrdan kam bo'lgan tashqi reklama uchun haq undirilmaydi.

III. Ko'priklar va yo'l o'tkazmalari panjaralarida reklamani joylashtirish

20. Reklama ko'priklar va yo'l o'tkazmalari panjaralarida reklama egasi bilan kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagi tarzda joylashtiriladi:

bir necha qismga (ustun oralig'i) ega ko'priklarda qismlarning uzunligi 15 metrdan oshmasa, reklama bitta qism (ustun oralig'i) - bitta reklama qoidasi bo'yicha joylashtiriladi, bunda reklama konstruksiyasining uzunligi ko'prik qismi uzunligining $\frac{2}{3}$ bo'limini tashkil qilishi lozim;

ustun oralig'ining uzunligi 15 metrdan ortiq bo'lgan ko'priklarda ikkita reklama konstruksiya joylashtirilishi mumkin, bunda ko'prikning uzunligi 7 qismga bo'linadi, ko'prik chetidan reklama konstruksiyasigacha bo'lgan va reklama konstruksiylari o'rtasidagi oraliq ustun oralig'i uzunligining $\frac{1}{7}$ qismiga teng

bo'lishi, ikkita reklama qoplamasining uzunligi ko'prik uzunligidan 2/7 qismicha bo'lishi kerak;

ikki harakatlanish yuli ustida, ustunlarni tutashtiruvchi yagona birikmaga ega bo'lgan ko'priklarda, konstruksiya uzunligi ikkala bo'lak bo'ylab masofa ruxsat etilsa, ko'prikning yarmiga teng bo'lishi kerak, bunda konstruksiyaning kengligi konstruksiyaning yuqori qismidagi ko'prikning relsidan oshmasligi kerak va ko'prikning tuzilishidan past bo'lmasligi kerak. Reklama ob'ektlarini (konstruksiyalarini) kengligi ko'prikning tuzilishidan past bo'lishi va to'siqdan 0,1 - 0,3 metrdan oshmasligi kerak.

21. Agar transport harakati yo'nalishi bo'yicha ko'prik panjarasida yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilgan bo'lsa, reklama faqat qarama-qarshi harakat yo'nalishi ustida joylashtiriladi.

Agar transport harakati yo'nalishi bo'yicha ko'prik panjarasida yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilmasa, unda reklama konstruksiyasi joylashtirilishi mumkin.

22. Agar O'zbekiston Respublikasi IIV YHXB tomonidan reklama konstruksiyalari joylashtirilgan ko'priklar va yo'l o'tkazmalari panjaralarida yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinsa, mazkur joyda ilgari o'rnatilgan reklama qurilmalari olib tashlanadi.

Konstruksiyalarni demontaj qilish inshoot egasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, barcha harajatlarni tashqi reklama vositasi (konstruksiyasi) egasiga belgilangan tartibda kompensatsiya qilib beriladi.

23. Ko'priklar va yo'l o'tkazmalari panjaralarida o'rnatilgan reklama konstruksiyalarining metall qismi teskari tomonidan muhofazalangan va ko'prik konstruksiyasi rangiga mos holda bo'yalgan, shuningdek, reklama qoplamasi birikkan joyni yopib turuvchi hoshiyaga ega bo'lishi kerak.

IV. Osma axborot va reklama vositalarini joylashtirish

24. Osma vosita sim arqonli moslama va bevosita reklama maydonidan iborat. Sim arqonlar ustunlarga yoki osma vosita uchun maxsus o'rnatilgan mahkamlashning texnik imkoniyatiga ega bino va inshootlarga mahkamlanadi. Osma vositalar shahar yoritish tarmog'i ustunlariga ulanmaydi.

Osma vositalar yoritiladigan hamda yumshoq asosli materialdan tayyorlangan yoritilmaydigan turlarga bo'linadi.

Yoritiladigan osma vositalar konstruksiyasi elektr tarmoqlarida avariyaaviy uzilish qurilmasiga ega bo'lishi lozim.

25. Yo'l ustiga osma transparentlar o'rnatishga ruxsat etilmaydi.

26. Shahar elektr transporti harakati tashkil etilgan ko'chalarga osma transparentlarni joylashtirish elektr tarmoqlaridan foydalanish xavfsizligining barcha me'yorlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Ular elektr tarmoqlaridan foydalanish xavfsizligi to'g'risidagi tartibda qayd etilgan balandlikda o'rnatilishi zarur.

V. Ko'rsatkichlarni joylashtirish

27. Ko'rsatkichlar ko'rinishidagi reklama vositalari - faqat yuridik yoki jismoniy shaxs haqida axborot berishi, ya'ni, ushbu korxonaning emblemasi yoki firma belgisini, nomini va mazkur tashkilot joylashgan manzilini aks ettirishi mumkin. Korxona, mahsulot yoki xizmatlar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarning mavjudligi tashqi reklama hisoblanadi.

28. Reklama ko'rsatkichlari reklama joyi pasporti olingandan so'ng o'rnatiladi.

29. Ko'rsatkichlar yuridik va jismoniy shaxslar joylashgan joyni aks ettirish uchun ularning joylashgan joyidan 500 metrgacha masofaga o'rnatilishi mumkin.

30. Ko'rsatkichning yo'l qatnov qismiga yaqin qirrasi yo'lning qatnov qismiga chiqmasligi kerak.

VI. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning axborot va reklama vositalarini joylashtirish

31. Aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning axborot vositalariga korxonalar va boshqa tashkilotlardagi kronshteyn va peshlavhalar, ularda korxonaning nomi va mulkchilik shakli, idoraviy bo'ysunishi yoki faoliyat turi bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi.

Aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning axborot va reklama vositalari quyidagi turlarga ajratiladi:

peshlavhalar;

axborot vositalari (axborot konstruksiyalari).

32. Barcha turdagi peshlavha va kronshteynlar bevosita korxona joylashgan bino ustiga yoki unga tutashgan va tegishli hududlarda joylashtiriladi.

Peshlavhalar yassi element, tom qurilmasi ko'rinishida (agar bino butunlay mazkur korxonaga tegishli bo'lsa) bajarilgan bo'lishi yoki kronshteyn ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Sutkaning qorong'i vaqtida peshlavhalar yoritilishi mumkin.

Peshlavhaning o'lchami binoning mazkur peshlavha o'rnatiladigan tomoni maydonining 5 foizidan katta bo'lishi mumkin emas.

Binoning old tomoniga joylashtirilgan peshlavha va (yoki) kronshteynlarda korxonaning faoliyat sohasini ochib beruvchi matn va uning o'z nomlanishi aks ettirilgan bo'lishi kerak.

Hajmi 1 kv. metrgacha bo'lgan peshlavhalar tashqi reklama ob'ekti hisoblanmaydi.

33. Axborot peshlavhalari tayyorlovchi (bajaruvchi, sotuvchi) to'g'risidagi axborotni iste'molchining e'tiboriga yetkazish uchun mo'ljallangan.

Xizmat ko'rsatish sohasining har bir korxonasi aholi kirish joylarining soniga muvofiq bitta yoki bir nechta axborot peshlavhasiga ega bo'lishi mumkin.

Peshlavhada faqat korxona to'g'risidagi quyidagi axborotlar ko'rsatilishi mumkin:

- korxonaning qayd etilgan (yuridik) nomlanishi;
- uning joylashgan joyi;
- korxonaning ish tartibi.

Axborot peshlavhalari binoning devorida korxonaga kirish joyi yonida yoki kirish eshigida tashrif buyuruvchilarga qulay tarzda joylashtirilishi mumkin.

Axborot peshlavhasining hajmi 1,0 kv. metrdan oshmasligi kerak.

34. Vitrinlarda joylashtiriladigan axborot - xizmat ko'rsatish sohasi korxonasining vitrinasida qayd etmasdan turib, tovar mahsulotlarining namunalarini, shuningdek, tarkibida boshqa firmalarning savdo markalari, nomlari, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari bo'lmagan quyidagi axborotni joylashtirishga ruxsat etiladi:

ushbu korxona sotadigan tovarlar va ko'rsatadigan xizmatlar to'g'risida ma'lumot;

korxonaning o'ziga xos yoki firma nomi (peshlavha mavjud bo'lsa), uning qayd etilgan tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari;

korxona faoliyatining yo'nalishini ochib beruvchi va uning firma nomiga mos keladigan tasviriy elementlar;

dekorativ bezak elementlari;

davlat va shahar bayramlari munosabati bilan majburiy tartibda joylashtiriladigan bayram bezaklari.

35. Umumiy ovqatlanish korxonalarining axboroti - umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bilan iste'molchilarni tanishtirishga mo'ljallangan majburiy axborot: menyu, preyskurantlar, xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risidagi ma'lumotlar binoning ichkarisida yoki old devorida joylashtiriladi, hajmi 2 kv. metrdan oshmasligi kerak.

36. Korxonalar, tashkilotlar va xususiy tadbirkorlarning axborot vositalari - manba sifatida yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlarning o'zlari tomonidan o'zlariga tegishli axborot vositalarida tarqatadigan axborot.

Bunda, vositaning o'lchami 2 kv. metrdan oshmasligi lozim.

Boshqa foto va matnli ma'lumotlar, o'zga tovar belgilarining yoki logotiplarning mavjudligi reklama sifatida ko'riladi, bu holda reklama joyining pasporti rasmiylashtiriladi va tegishli yig'imlar undiriladi.

37. Vakolatxona va distribyutorlar tomonidan o'zlari joylashgan manzil bo'yicha tarqatiladigan o'z faoliyati to'g'risida ma'lumot (faqat umumiy ma'lumotlar: kim ekanligi, faoliyat yo'nalishi, rekvizitlar, tovar belgilari va ishlab chiqariladigan tovarlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) ro'yxatining mavjudligi reklama sifatida baholanadi) reklama hisoblanmaydi, uning uchun haq olinmaydi va u mazkur Qoidaga

muvofig rasmiylashtirishni talab etmaydi. Biroq, agar savdo belgilari va ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ko'rsatilgan xizmatlar) ro'yxati bo'lsa, shuningdek, agar rasmiylashtirilgan axborot xajmi 2 kv. metrdan oshsa, u reklama sifatida belgilanadi.

VII. Hajmli-fazoviy konstruksiyalarni joylashtirish

38. Hajmli-fazoviy konstruksiyalardan konstruksiyaning ham hajmi, ham yuzasidan foydalangan holda reklama axborotini tarqatish uchun foydalaniladi.

Ular yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha bajariladi va har bir alohida holatda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Bunday turdagi konstruksiyalar va ularni joylashtirish shitli qurilmalarni o'rnatish uchun qo'yiladigan talablarga (ular bilan bog'liq bo'lgan hollarda) muvofig amalga oshiriladi.

39. Hajmli-fazoviy konstruksiyalarda tashqi reklamani joylashtirishga ruxsatnomalarni ro'yxatdan o'tkazish ushbu Qoidada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VIII. Bayroqli kompozitsiya va soyabonlarni joylashtirish

40. Bayroqli kompozitsiya - asos va bir yoki bir nechta flagshtok (ustuncha) hamda yumshoq matodan iborat reklama konstruksiyasi.

41. Bayroqning axborot yuzasi maydoni matoning ikkala tomoni yuzasi bilan belgilanadi.

Soyabonning axborot yuzasi maydoni uning bitta tomoni yuzasi bilan belgilanadi.

IX. Tom usti konstruksiyalarini joylashtirish

42. Tom ustidagi (tom usti konstruksiyalari) tashqi reklama ob'ektlarining balandligi bino umumiy balandligining 1/3 qismidan oshmasligi va elektr ta'minoti tarmog'idan favqulodda uzilish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

43. Binolarda o'rnatilgan tom usti qurilmalari axborot yuzasi maydonining to'lov summasini hisoblashda butun konstruksiyaning tashqi gabarit o'lchamlari bo'yicha aniqlanadi.

Konstruksiya o'rnatilgan joyning ijarasi binoning balans egasi bilan alohida kelishuv bo'yicha amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari reklama tarqatuvchi bilan binoni balans egasi o'rtasidagi munosabatlarga aralashishga haqli emas.

X. Binolar devorlarining yuzasida devoriy reklama konstruksiyalarini quyidagi ko'rinishda joylashtirish

44. Binolar devorlarining yuzasida devoriy reklama konstruksiyalarini joylashtirish quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

bevosita devor yuzasiga tushirilgan tasvir (axborot yuzasi);

devorga mahkamlash elementlari, karkas va axborot yuzasidan iborat

konstruksiya.

45. Devoriy pannolar individual loyihalarga muvofiq amalga oshiriladi. Devorga mahkamlanuvchi qismlarga ega devoriy pannolar uchun foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida majburiy tartibda konstruksiyani mahkamlash loyihasi ishlab chiqiladi.

Devoriy panno axborot yuzasining maydoni axborot yuzasi karkasining kattaligi bilan belgilanadi.

XI. Vitrajlar va proektsiyali konstruksiyalarni joylashtirish

46. Reklama axboroti vitraj oynasining ichki tomonidan yoki o'zi yelimlanadigan plyonka ishlatilsa, tashqi tomondan joylashtiriladi.

47. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining vitrajlarida korxonaning faoliyat yo'nalishiga mos bo'lmagan reklama bezaklarini joylashtirishga yo'l qo'yiladi. Bunda ushbu bezaklar vitraj maydonining ko'pi bilan 20 foizini egallashi mumkin. Reklama bezaklari 20 foizdan ko'p bo'lgan taqdirda, reklama deb hisoblanadi va o'rnatilgan tartibda pasportlashtirilishi shart.

Vitraj axborot yuzasining maydoni vitrinaning shaffof yuzasiga tushirilgan tasvirlarning kattaligi, shuningdek, vitrina ichida joylashtirilgan hajmli konstruksiyalarning kattaligi bilan belgilanadi.

48. Proektsiyali qurilmalarning konstruksiyalari proektsiyalovchi qurilma va axborot tasviri shakllanadigan yuza (ekran) yoki hajmdan iborat.

49. Yassi tasvirlar uchun axborot yuzasining maydoni proeksiya tushayotgan yuzaning kattaligi, hajmiy tasvirlar uchun esa hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi.

Axborot yuzasining maydoni nur tarqatuvchi yuzaning kattaligi bilan belgilanadi.

Bunday turdagi konstruksiyalar va ularni joylashtirish qoidalariga alohida turgan shitli qurilmalarga nisbatan qo'yiladigan talablar ularga doir qismida amal qiladi.

50. Markiz axborot maydonining yuzasi tasvir tushirilgan qismining kattaligi bilan aniqlanadi.

XII. Shahar mebel ob'ektlarida (to'xtash majmualari, tumbalar, taksofonlarda) reklamani joylashtirish

51. Reklama tashuvchilar bilan birlashtirilgan ko'cha mebel elementlari deb umumiy reklama panellari bilan jihozlangan shahar yo'lovchi transportini kutish pavilonlari, shahar yo'lovchi transporti to'xtash joylarining ko'rsatkichlari, ko'cha o'rindiqlari, axlat qutilari, ko'cha soatlari, taksofon kabinalari, yo'lovchi harakatini to'suvchi elementlar tushuniladi.

Avtobus to'xtash bekatlari loyihasiga qarab, bir yoki bir nechta reklama panellari bilan jixozlanishi mumkin. Shuningdek, reklama orqali bezatishga yo'l qo'yiladi.

Avtobus to'xtash bekatlarining yopiq oyna bilan to'silgan yuziga, yo'l qatnov qismiga qaragan joyga reklamani joylashtirish taqiqlanadi.

52. Reklama panellari bilan jihozlangan shahar yo'lovchi transportini kutish pavilonlari majburiy tartibda o'rindiqlar va shahar axborot lavhalari bilan majmuada, o'rnatish ishlari yakunlangandan so'ng arizachi tomonidan pavilonga tutashgan hududni obodonlashtirish bo'yicha talablarga rioya etilgan holda o'rnatilishi kerak.

53. Reklama tashuvchilar bilan birlashtirilgan ko'cha mebel elementlari, yoritish elementlari tashqi yoritish, elektr ta'minlash tarmog'iga qo'shilgan taqdirda, elektr ta'minoti masalalari va foydalanilgan elektr quvvati uchun to'lov masalalari tashqi yoritish tarmog'ining elektr ta'minoti liniyalari (VL va KL) muhofaza zonasiga qo'yilgan barcha talablarga rioya etilganda, elektr ta'minoti korxonalari bilan kelishilsagina yo'l qo'yiladi.

XIII. Tashqi reklama va axborotning mobil ob'ektlari

54. Shaharda korxonalarining ish soatlarida joylashtiriladigan tashqi reklama va axborotning vaqtincha ob'ektlari, jismoniy shaxslar tomonidan texnik vositalarni ishlatmasdan ko'chiriladi:

o'z yoritgichiga ega bo'lmazligi lozim;

umumiy maydoni 2 kv. metr, balandligi 1 metrdan oshmasligi kerak;

reklama qilinayotgan ob'ekt joylashgan binoning old devoridan 1,5 metrgacha masofada joylashtirilib, yo'lovchilarga xalaqit bermasligi va o'tish joylarini to'sib qo'ymasligi kerak;

yo'laklarda va ko'rishga to'sqinlik qiluvchi joylarda o'rnatilmasligi kerak;

yo'lning qatnov qismidan 5 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi kerak.

55. Lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlarda reklama - chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining ishlash vaqtida lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlarda o'rnatiladigan tashqi reklamani joylashtirish vaqtincha vositalari, lotoklar, aravachalar, kiosklar va soyabonlarning ayrim qismlarini plyonkali yoki bo'yoq materiallari bilan qoplamasidan iborat. Axborot yuzasining maydoni chizilgan tasvirning kattaligi bilan belgilanadi.

56. Qurilish va chakana (ko'cha) savdosi (yozgi kafelar, ko'rgazmalar, savdo maydonlari va qurilgan maydonchalarining to'siqlari) ob'ektlarining vaqtincha to'siqlaridagi, shuningdek, boshqa vaqtincha to'siqlardagi reklama ushbu ob'ektlarning badiiy bezagini ta'minlashi lozim.

Ushbu ob'ektlarni alohida qalqonlar, yumshoq bezak yoki uzluksiz lenta bilan bezash tavsiya etiladi.

57. Shitli konstruksiyalar qo'llanganda, ularning balandligi to'siqning tayanch elementlari balandligining 1/2 qismidan oshib ketmasligi kerak.

Qurilish maydonchasida inshootlar (bino qayta ta'mirlanganda qurilish havoalari, maishiy xonalar, proyektorlar uchun machtalar, kranlar va boshqalar),

shuningdek, to'suvchi tur mavjud bo'lsa, mazkur Qoidada nazarda tutilgan tashqi reklamaning boshqa ob'ektlarini joylashtirish mumkin.

58. Qurilish to'siqlarining har qanday turidagi reklama - qurilish ob'ektlarini chegaralovchi turlar va to'siqlarning boshqa turlaridagi tasvir ko'rinishida tashqi reklama ob'ektlari. Bunday to'siqlarda reklama qurilish yoki ta'mirlash-tiklash ishlariga ruxsatnoma mavjud bo'lsa, uning amal qilish muddati davomida binoning tashqi tomonida (old tomonida) qurilish va tiklash ishlari bajarilayotganda joylashtiriladi.

XIV Reklama atributlarini joylashtirish

59. Reklama atributlariga donasining o'lchami 0,2 kv. metrdan katta bo'lmagan har xil turdagi reklama mahsulotlari (breloklar, soyabonlar (faqat vaqtincha o'rnatiladiganlari), chiqindi tashlash idishlari (urnalar), o'rindiqlar, kuldonlar, kanselyariya anjomlari, taqvimlar, maykalar, maxsus kiyimlar, nishonlar, idishlar, shuningdek, suvenirlar va firmalar bayroqlari) kiradi;

Reklama atributlari savdo shaxobchalarini va idoralarni bezashda firma va tovarlar haqida axborot tashuvchi sifatida foydalaniladi.

Reklama atributlari korxona egasi tomonidan mustaqil ravishda joylashtirilishi mumkin. Ulardan tashda reklama vositalarini joylashtirish tarifi bo'yicha haq olinmaydi. Bunda reklama egasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan talablarning bajarilishiga javobgar bo'ladi;

Xizmat ko'rsatish shaxobchalarini tashqi bezatishning boshqa barcha turlari, jumladan, donasining o'lchami 0,2 kv. metrdan katta bo'lgan suvenirlar va firmalar bayroqlari, yorituvchi idishlar, bo'yash va firmali bezash tashqi reklama hisoblanadi.

XV. Teatr va konsert afishalari, ommaviy madaniy, sport va boshqa yo'nalishdagi tadbirlar e'lonlarini joylashtirish

60. Teatr va konsert plakatlari, madaniy tadbirlar, sport va boshqa tadbirlar, turli reklama aksiyalari uchun tashqi reklama ob'ektlarini (konstruksiylarini) joylashtirish ushbu Qoida talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Umumiy maydoni 2 kv. metrdan kam bo'lgan teatr va konsert plakatlari tashqi reklama joylashtirish uchun to'lovlardan ozod etiladi.

61. Tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) joylashtirilgan teatr va konsert plakatlari, madaniy tadbirlar, sport va boshqa tadbirlar, turli xil reklama e'lonlari tashqi reklama hisoblanadi.

Teatr va konsert plakatlari, e'lonlarning tashqi ko'rinishi, estetik dizayni va mazmuni belgilangan talablariga muvofiqligi uchun javobgarlik madaniy tadbirlar egalari (tashkilotchilariga) yuklanadi.

62. O'rnatilgan tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiylari) ushbu Qoida talablariga muvofiq ravishda bajarilmasa, konstruksiylar tashqarisida joylashtirilgan plakatlar va e'lonlar noqonuniy hisoblanadi va belgilangan tartibda demontaj qilinishi kerak.

63. Noqonuniy joylashtirilgan reklamalarni demontaj qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar ularning egalari hisobidan qoplanadi.

XVI. Yer uchastkalarida joylashtiriladigan tashqi reklama va axborot ob'ektlariga (konstruksiylariga) qo'yilgan talablar

64. Tashqi reklama vositalari reklama konstruksiylarining texnik holati va dizayniga nisbatan qo'yiladigan talablarga muvofiq o'rnatiladi.

65. Yer osti poydevorlarining balandligi 50 santimetrdan oshmasligi kerak, suvoqlangan va joylashuvning asosiy elementlariga mos keladigan rangda bo'yalgan bo'lishi kerak.

66. Agar poydevor piyodalar yo'liga, piyodalar o'tish joyiga to'g'ri keladigan bo'lsa va poydevor sug'orish idishlari ustiga qo'yilgan bo'lsa, poydevor qo'yish taqiqlanadi.

67. Qisman chuqurlashtirilgan poydevorning 40 santimetrdan ortiq chuqurlikdagi qismi tuproq poydevoriga qo'yiladigan talablarga muvofiq qayta ishlanishi kerak.

68. Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya):

texnik bosim xavfsizligining yuqori darajasini hamda shamol bosimi va foydalanishda yetarlicha turg'unlikni ta'minlovchi materiallardan tayyorlanishi lozim;

loyiha hujjatlari va konstruksiyaning qurilish me'yorlari va qoidalari hamda boshqa normativ hujjatlarga muvofiq o'rnatilganligi haqida tegishli litsenziyaga ega bo'lgan vakolatli tashkilotning joriy yildagi xulosasi mavjud bo'lishi kerak.

69. Qurilish ob'ekti ustuni:

reklama konstruksiya ustuni «0» belgisidan reklama maydonigacha kamida 5,0 metr balandlikka ega bo'lishi lozim, bunda reklama qurilmasining tuzilishi transport vositalari haydovchilariga zarur ko'rish sathini ta'minlashi kerak;

reklama konstruksiya ustunlari qo'shimcha tirgaklarga yoki tortib bog'lanuvchilarga ega bo'lmasligi kerak;

reklama konstruksiya ustuni tashqi ko'rinishini yomonlashtiruvchi elementlarga (payvandlash choklari, zang, shikastlarga) ega bo'lmasligi kerak.

70. Reklama konstruksiya mahkamlashning tashqi elementlari himoya qoplamasi bilan yopilgan va poydevor rangiga mos holda bo'yalgan bo'lishi kerak.

71. Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiya) reklama maydoniga quyidagi talablar qo'yiladi:

reklama maydoni o'lchamlari reklama joyining pasportida ko'rsatilgan o'lchamlarga qat'iy muvofiq bo'lishi kerak;

konstruksiyaning reklama maydoni tomonlari o'rtasida tirqishsiz, reklama qoplamasini mahkamlash elementlari ko'rinishini istisno qiluvchi hoshiya ramkasiga ega bo'lishi kerak;

bir tomonli konstruksiya estetik tashqi ko'rinishni ta'minlovchi konstruksiya ort qismining metall qoplamasiga ega bo'lishi kerak;

bog'ichlarning ilmoqlari reklama maydonidan tashqariga chiqmasligi kerak;

reklama konstruksiyasi egalarining logotipi, nomi va bog'lanish telefonlari yozilgan lavhachaga ega bo'lishi kerak;

reklama konstruksiyasi yoritmaga ega bo'lishi kerak;

o'rnatiladigan yoritma uy-joylarning derazalariga bevosita yaqin joylashmasligi, istiqomat qiluvchilarning to'laqonli dam olishiga xalaqit bermasligi, yo'l harakati ishtirokchilarini yorug'lik, jumladan, akslangan yorug'lik bilan qamashtirmasligi lozim;

tashqi reklama ob'ektlarini yoritish uchun sanoatda ishlab chiqarilgan, elektr va yong'in xavfsizligini ta'minlovchi yorug'lik asboblari ishlatilishi lozim. Yorug'lik asbobining birikmasi uni reklama konstruksiyasi bilan ishonchli ulanishini ta'minlab, shamol, qor bosimini, tebranish va zarbali ta'sirlarni ko'tarishi lozim;

tashqi reklama ob'ektlarini joylashtirish yo'lovchilarga, ko'cha va yo'lovchi yo'laklarini tozalashga to'sqinlik qilmasligi lozim;

shovqin, tebranish, kuchli yorug'lik, elektromagnit va boshqa nurlanish va maydonlarning manbasi bo'lgan tashqi reklama ob'ektlarini uy-joylarga yaqin o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

72. Tarkibida elektrotexnika va yorug'lik texnikasi uskunasi mavjud har bir yer usti tashqi reklama vositasi elektr qurilmalari Qoidalari talablariga muvofiq bajarilgan yerga ulangan qurilmaga ega bo'lishi kerak. Mazkur yerga ulangan qurilma, uning davriy sinovlari alohida hujjatda qayd etilib, reklama vositasi egasida saqlanishi lozim.

XVII. Yer uchastkalarida joylashtiriladigan tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish talablari

73. Xoch shaklidagi chorrahalarda mustaqil o'rnatiladigan tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalar) soni (har bir burchakda 1 tadan) 4 donadan hamda bir xil katta formatdan (18 m² gacha) oshmasligi kerak.

T shaklidagi chorrahalarda mustaqil o'rnatiladigan tashqi reklama ob'ektlar (konstruksiyalar) soni (har bir burchakda 1 tadan va paralel ravishda qarshi ko'chada 1 tadan) 4 donadan hamda bir xil katta formatdan oshmasligi kerak.

Bunda tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari)ni yopib qo'ymasligi va kuzatuv kameralarini ishlashi uchun halaqit bermasligi hamda asosiy yo'lga chiqishi ta'qiqlanadi.

74. Tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) orasidagi masofalar normativlari Navoiy viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlanadi.

75. Transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan yer bo'lagi yoxud sun'iy inshoot yuzasi chetida joylashtirilgan barcha tashqi reklama ob'ektlar (konstruksiyalar) yo'lning relssiz transport vositalari harakati

uchun mo'ljallangan qatnov qismiga chiqishi ta'qiqlanadi.

XVIII. Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiyasi) egasining huquq va majburiyatlari

76. Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiyasi) egasi «Reklama to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan tartibga solinadigan huquqlarga ega, shuningdek:

reklama to'g'risida shartnoma tuzish haqida ommaviy shartnoma berish;

reklama materiallarini taqdim etish hajmi va shakllarini mustaqil ravishda aniqlash;

qonunchilikda belgilangan tartibda reklama joylashtirishga ruxsat rad etilishi ustidan shikoyat qilish;

tijorat reklamasini joylashtirishga buyurtma bo'lmagan taqdirda, belgilangan tartibda ijtimoiy reklama joylashtirish.

77. Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiyasi) egasi:

tashqi reklama joylashtirish uchun barcha harakatlarni «Reklama to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va ushbu Qoida talablariga qat'iy muvofiq ravishda bajarishi;

reklama vositalarini faqat reklama joyi pasporti asosida joylashtirishi;

ushbu Qoida talablariga javob bermaydigan tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiyalariga) berilgan pasportlar, guvohnomalar, sertifikatlar, ruxsatnomalar va huquqni belgilovchi boshqa hujjatlari belgilangan tartibda bekor qilingan taqdirda, shu jumladan qalbaki hujjatlardan foydalangan holda tashqi reklama ob'ektini (konstruksiyasini) o'z hisobidan demontaj qilishi;

keyinchalik reklamani joylashtirishdan voz kechilgan taqdirda viloyat hokimligini bu to'g'rida xabardor qilishi va reklamani joylashtirishning to'langan muddati tugagunga qadar reklama vositasini olib tashlashi;

reklama konstruksiyasi yoki reklama qoplamalarining tashqi ko'rinishi yomonlashgan taqdirda, xabar qilingandan so'ng 3 sutkadan kechiktirmagan holda tiklash ishlarini o'tkazishi;

reklama vositalaridagi reklama qoplamalarining ko'rinishini o'zboshimchalik bilan o'zgartirmasligi;

tasdiqlangan eskiz, joylashtirish sxemasi va reklama joyining pasportiga muvofiq qat'iy ravishda ajratilgan reklama joyidan foydalanish va reklama vositasini o'rnatishi lozim.

XIX. Yakunlovchi qoidalar

78. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari) uchun berilgan reklama joyining pasporti Navoiy viloyat hokimligi tomonidan quyidagi hollarda bekor qilinadi:

tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylari) xavfsizligining umumiy texnik reglamentida nazarda tutilgan talablarga nomuvofiq bo'lganda;

reklama tarqatishdan boshqa maqsadda foydalanilganda;

reklama joyining pasporti berilgan kundan e'tiboran olti oy ichida o'rnatilmaganda;

tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmasiga nomuvofiq bo'lganda;

moddiy madaniy meros ob'ektlariga, yo'l belgilariga va svetoforlarga, ularning tirgaklariga yoki harakatni tartibga solish uchun mo'ljallangan boshqa har qanday qurilmaga, shuningdek, tutash hududdagi obodonlashtirish elementlarini buzgan holda hamda yo'lning qatnov qismiga chiqarib o'rnatilganda;

o'rnatilgan tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylari) uchun to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganda;

reklama joyi pasporti egasining pasportni va tuzilgan shartnomani bekor qilish to'g'risidagi arizasi mavjud bo'lganda;

qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda.

Reklama joyi pasporti bekor qilingan taqdirda, reklama joyining pasportida ko'rsatilgan, davlat mulki bo'lgan yer uchastkalariga, binolarga hamda inshootlarga tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatishga bo'lgan huquq yagona elektron savdo maydonchasi orqali ochiq elektron auksionda sotuvga qo'yiladi.

Tashqi reklama ob'ekti (konstruksiyasi) egasi qarordan rozi bo'lmagan taqdirda, sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Tashqi reklama ob'ektini (konstruksiyasini) qurish huquqini (pasportini) asossiz bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

79. Tashqi reklamaning hisobi tegishincha Navoiy viloyat hokimligi tomonidan elektron tizim orqali yuritiladi.

80. Ushbu Qoida talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-68-14-5-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyatida tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) hamda transport vositalariga tashqi reklamani joylashtirish uchun yig'ımlar miqdori

T/r	Reklama ob'ektlarining turlari	O'lchov birligi	Bir oyga 1 m.kv uchun (BXMning %da)
I. Yer uchastkalarida o'rnatilgan alohida turuvchi konstruksiylar			
1.1	kichik formatdagi (2,19 kv.m.gacha)	1 kv.m	5
1.2	o'rta formatdagi (2,2 kv.m.dan 12 kv. m.gacha)	1 kv.m	5
1.3	katta formatdagi (12 kv.m.dan 18 kv. m.gacha)	1 kv.m	5
1.4	o'ta katta formatdagi (18 kv.m.dan ortiq)	1 kv.m	5
1.5	Hajmli-fazoviy qurilma	1 kv.m	5
1.6	bayroqli reklamalar to'plami (kompozitsiya)	1 kv.m	5
1.7	reklama modullariga ega ko'rsatkichlar	1 kv.m	5
1.8	umumiy maydoni 3 kv.m.dan ortiq afisha devorlar	1 kv.m	5
II. Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiylari			
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan konstruksiylar	1 kv.m	5
2.2	binolarning tom qismlaridagi konstruksiylar — me'moriy shakl (haykallar)	1 kv.m	5
2.3	maydoni 2 kv.m va undan ortiq bo'lgan yirik konstruksiylar	1 kv.m	5
2.4	pavilonlardagi konstruksiylar	1 kv.m	5
2.5	ko'cha mebeli, xususan, reklama moduli o'rnatilgan o'rindiqlar	1 kv.m	5
2.6	maydonli to'siqlardagi konstruksiylar	1 kv.m	5
2.7	ko'priklarda, yo'l o'tkazgichlar, quvur liniyalari, yoritish tirgaklarida o'rnatilgan konstruksiylar	1 kv.m	5
2.8	Markizlar	1 kv.m	5
III. Tashqi reklama vaqtinchalik ob'ektlari (konstruksiylari)			
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv.m va undan ko'p bo'lgan vaqtincha reklama to'siqlari	1 kv.m	5
3.2	2 kv.m va undan ko'p bo'lgan umumiy ovqatlanish va savdo nuqtalaridagi reklama	1 kv.m	5
3.3	1 kv.m va undan ortiq bo'lgan peshlavaxalar	1 kv.m	5
3.4	vaqtincha turdagi kiosklar va pavilonlardagi reklama	1 kv.m	5
3.5	plakatlar, chodirlar, soyabonlar, kanoplar, bayroqlar, osma bayroqlar, yelkanli bayroqlardagi reklama	1 kv.m	5
3.6	nostandart shakldagi konstruksiylar	1 kv.m	5

3.7	vitraj — oyna, eshik va bino arkalarida oʻrnatiladigan konstruksiya	1 kv.m	5
3.8	promoqurilmalar	1 kv.m	5
IV. Yorugʻli-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, yuguruvchi satrlar displeylari va boshqalar)			
4.1	Yorugʻli-diodli monitorlar, elektr ekranlar	1 kv.m	15
V. Transport vositalarida joylashtirilgan tashqi reklama (bir yillik toʻlov uchun)			
5.1	M1 — yoʻlovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining oʻrindigʻidan tashqari oʻrindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	200
5.2	M2 — yoʻlovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining oʻrindigʻidan tashqari oʻrindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha boʻlgan avtotransport vositalari	dona	200
5.3	M3 — yoʻlovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining oʻrindigʻidan tashqari oʻrindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t dan koʻp boʻlgan avtotransport vositalari	dona	200
5.4	N1 — yuk tashish uchun moʻljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	300
5.5	N2 — yuk tashish uchun moʻljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	300
5.6	N3 — yuk tashish uchun moʻljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq boʻlgan avtotransport vositalari	dona	300
5.7	O1 — eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	200
5.8	O2 — eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	200
5.9	O3 — eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	300
5.10	O4 — eng katta vazni 10 t dan ortiq boʻlgan tirkamalar	dona	300
VI. Tashqi reklama obʼektlari (konstruksiyalari)ni demontaji uchun kompensatsiya			
6.1	yer uchastkalarida oʻrnatilgan alohida turuvchi statik konstruksiyalar	1 kv.m	200
6.2	binolar, inshootlar va qurilmalardagi statik reklama konstruksiyalari	1 kv.m	300
6.3	yer uchastkalarida oʻrnatilgan alohida turuvchi yorugʻli-diodli monitorlar, elektr ekranlar	1 kv.m	300
6.4	binolar, inshootlar va qurilmalardagi yorugʻli-diodli monitorlar, elektr ekranlar	1 kv.m	300

Izoh: minimal demontaj hajmi 4 kv.m. Agar demontaj qilingan ob'ekt 4 kv.m dan kam bo'lsa, kompensatsiya miqdori 4 kv.m maydon uchun hisoblab chiqiladi.

o'lchov miqdori quyidagicha belgilanadi:

$$T = B \times M \times K / 100$$

bunda:

T — 1 oyda 1 kv. metr uchun yig'im miqdori;

B — amaldagi BHM stavkasi;

M — BHMning belgilangan foizi;

K — yig'im miqdoriga qo'llaniladigan koeffitsienti.

BXM (bazaviy hisoblash miqdori) 01.12.2023 yil holatiga 340 000 so'm. (BXM) Bazaviy hisoblash miqdori o'zgarganda 1 m.kv uchun so'mma miqdori mos ravishda o'zgarib boradi.

Tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga), yorug'li-diodli monitorlar, elektr ekranlarga reklamani joylashtirish uchun yig'imlar miqdorini hisoblashda tuman va shaharlarning koeffitsientlari qo'llaniladi.

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-68-14-5-0-K/24-son qaroriga
3-ilova

**Viloyatda tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiylariga) tashqi reklamani
joylashtirish uchun yig'ımlar miqdoriga qo'llaniladigan koeffitsientlari**

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	koeffesient	Qishloqlar (posyolkalar)	Qishloq joylari
1	Navoiy shahri	1,0	-	-
2	Zarafshon shahri	0,9	0.7	-
3	Karmana tumani	0,9	0.7	0.7
4	Xatirchi tumani	0,8	0.7	0.7
5	Navbahor tumani	0,8	0.7	0.7
6	Nurota tumani	0,8	0.7	0.7
7	Qiziltepa tumani	0,8	0.7	0.7
8	Konimex tumani	0,8	0.7	0.7
9	G'ozg'on shahri	0,7	0.7	0.7
10	Uchquduq tumani	0,7	0,6	0,6
11	Tomdi tumani	0,7	0,6	0,6

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-68-14-5-0-K/24-son qaroriga
4-ilova

**Tashqi reklama ob'ektlariga (konstruksiya-lariga) tashqi reklamani o'rnatish
uchun shartnomaning namunaviy shakli**

Reestr raqami _____

Navoiy sh.

____.____.20__y.

Ushbu hujjat Navoiy viloyati hokimligi (keyingi o'rinlarda– HOKIMIYA T deb yuritiladi) va tadbirkorlik sub'ekti (keyingi o'rinlarda “REKLAMA JOYI PASPORTIGA TALABGOR”) birgalikda yoki alohida TOMONLAR/TOMON deb ataluvchilar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi, 369-moddasi ikkinchi qismi va O'zbekiston Respublikasining “Reklama to'g'risida”gi O'RQ-776-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq Navoiy viloyati hududida Yer uchastkalariga, binolarga va inshootlarga, tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiya-larini) o'rnatish to'g'risida Shartnoma hisoblanadi.

Ushbu Shartnoma bo'yicha birinchi to'lovni amalga oshirganlik, Shartnomani Aksept qilish, ya'ni ushbu Shartnomaning barcha shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilish, deb tan olinadi.

Tomonlar o'rtasida quyidagi shartlar bo'yicha Shartnoma uni aksept qilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

Shartnomada qo'llaniladigan asosiy atamalar.

shahar hodisasi - reklama o'rnatish joyida tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiya-lari)ni o'rnatish (yoki) ulardan foydalanishni imkonsiz qiladigan holatlar, shu jumladan shaharsozlik ishlarini olib borish, kommunal tarmoqlari (suv ta'minoti tarmog'i, kanalizatsiya, kabel tarmog'i, gaz quvurlari, elektr tarmoqlarin)ni ta'mirlash bilan bog'liq ishlar, Navoiy viloyati hududini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish bilan bog'liq sabablar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi “Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida”gi 104-sonli qarori

93-bandining «g» va «d» kichik bandlarida nazarda tutilgan hollarni o‘z ichiga olgan holatlar;

YaIDXP - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.

Shartnoma predmeti

1.1. Shartnoma Navoiy viloyati hududida joylashgan yer uchastkalariga, binolarga va inshootlarga, tashqi reklama va axborot ob’ektlarini (konstruksiylarini) o‘rnatish, shuningdek, ulardan foydalanish huquqi uchun yig‘imni to‘lash tartibini belgilaydi.

1.2. Shartnoma shartlariga muvofiq, Reklama joyi pasportiga talabgor reklama joyining Pasportiga (keyingi o‘rinlarda - Pasport deb yuritiladi) muvofiq maxsus tashqi reklama axborotni tarqatish uchun ajratilgan joyda tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig‘im to‘lovini amalga oshiradi.

1.3. Tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari)ni o‘rnatish joyi (keyingi o‘rinlarda - “Reklama joyi” deb yuritiladi) Reklama joyi pasportiga talabgorga Hokimiyat tomonidan ochiq elektron kim oshdi savdosi natijalariga ko‘ra elektron savdo maydonchasi yoki YaIDXP orqali berilgan (yangilangan) reklama joyining pasportiga qat’iy muvofiq belgilanadi.

1.4. Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan hududda tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun to‘lov, elektron savdo maydonchasi orqali o‘tkazilgan ochiq elektron kim oshdi savdosi natijalariga ko‘ra belgilangan tariflar bo‘yicha yoki xususiylashtirilgan yer uchastkalarida, shuningdek, binolar va xususiy mulk ob’ektlarida tashqi reklama vositalarini joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun Navoiy viloyati Xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan tariflar bo‘yicha amalga oshiriladi.

1.5. Tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari) Reklama joyi pasportiga talabgor faqat O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga muvofiq foydalanishi mumkin.

1.6. Tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari)ni o‘rnatish, ulardan foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va demontaj qilish tartibi texnik reglament talablariga, tashqi reklama va axborot ob’ektlari (konstruksiylari)ni o‘rnatish chizmasiga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga

mos bo'lishi kerak.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Reklama joyi pasportiga talabgorning huquq va majburiyatlari.

2.1.1. Reklama joyi pasportiga talabgorning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

2.1.1.1. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni Pasportga qat'iy rioya qilgan holda joylashtirish hamda tashqi reklama vositalarini joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'imlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash;

2.1.1.2. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni tasdiqlangan tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish chizmasiga va tashqi reklama ob'ektlari reestriga (ushbu Shartnomaga 1-ilova) muvofiq qurilish qoidalari, xavfsizlik qoidalari va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'rnatish;

2.1.1.3. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari) xavfsiz ishlashini ta'minlashi va tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ga yetkazilgan zararlarni, Hokimiyatning yozma ko'rsatmalariga muvofiq, darhol bartaraf etishi shart. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish (montaj qilish) va demontaj qilish ishlarini qurilish me'yorlari, xavfsizlik qoidalari, yong'in xavfsizligi qoidalari va boshqa qoidalarga muvofiq amalga oshirishi shart;

2.1.1.4. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish (yig'ish) va demontaj qilish bo'yicha rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirayotganda, Reklama joyi pasportiga talabgor bunday ishlarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq barcha zarur ruxsatnomalar, orderlar, hujjatlar va boshqalarni oldindan olishga qaratilgan tegishli choralarni ko'rishi shart;

2.1.1.5. Agar reklama joyiga tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatishga to'sqinlik qiladigan holatlar aniqlansa, Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi lozim, bundan tashqari, bu bilan cheklanib qolinmagan holda:

Hokimiyat bilan kelishilgan va ruxsat olinganidan so'ng, tashqi reklama va

axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatishi mumkin bo'lgan boshqa hududda reklama konstruksiya-sini o'rnatish;

muhandislik-kommunikatsiyalarini ko'chirish yoki ularni ishlash xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

tegishli ekspluatatsiya tashkilotlaridan rozilik olish.

2.1.1.6. Shartnomani bajarish doirasida har bir tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni rejalashtirilgan tarzda o'rnatish sanasi to'g'risida 3 (uch) ish kuni oldin Hokimiyatni yozma ravishda xabardor qilish;

Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari) foydalanishga topshirilgan (qabul qilingan) kundan boshlab, 3 (uch) ish kunida Shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish dalolatnomasini Hokimiyatga yuborish;

2.1.1.7. Shahardagi favqulodda vaziyat yoki boshqa holatlar (shaharsozlik holatining o'zgarishi, shahar ob'ektlarini ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilish ishlari, yo'l harakatini tashkil etishdagi o'zgarishlar, rekonstruksiya, qurilish va ta'mirlash ishlari va boshqalar.) tufayli tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni Shartnomada nazarda tutilgan muddatdan oldin demontaj qilish zarurati tug'ilganda, tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni Hokimiyat tomonidan belgilangan muddatlarda demontaj qilish;

2.1.1.8. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatish yoki foydalanishga to'sqinlik qilgan yoki uning demontaj qilinishiga sabab bo'lgan holatlar tugaganligi to'g'risida Hokimiyatdan bildirishnoma olgandan keyin tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni o'rnatishi shart;

2.1.1.9. Reklama joyi pasportiga talabgor bayramlar, rasmiy davlat tashriflari va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlar o'tkazish vaqtida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ijtimoiy axborotlarni joylashtirish imkoniyatini ta'minlashi shart. Reklama joyi pasportiga talabgor oylik umumiy reklama hajmining kamida besh foizi miqdorida ijtimoiy axborotni joylashtirishi shart;

2.1.1.10. Reklama joyi pasportiga talabgor yuqori texnologiyali tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni Hokimiyatning talabiga binoan

masofadan turib boshqarish va monitoring tizimlaridan biriga ulashi shart;

2.1.1.11. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni tegishli ko'rinishda va tegishli texnik holatda saqlash, shuningdek, tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni ikki kundan ortiq reklama joylashtirmasdan saqlamasligi;

2.1.1.12. Reklama joyiga xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlangan Navoiy viloyati hududidagi tashqi reklama ob'ektlarining namunaviy to'plami talablariga javob beradigan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni o'rnatish;

2.1.1.13. Agar tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni belgilangan tartibda demontaj qilish zarurati tug'lsa, Hokimiyat bu haqda Reklama joyi pasportiga talabgorni zudlik bilan xabardor qiladi. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni xabarnomada belgilangan muddatda demontaj qilishga majburdir;

2.1.1.14. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan keyin yoki muddatidan oldin bekor qilinganidan so'ng, Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagan yoki muddatidan oldin bekor qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay demontaj qilishi shart. Reklama joyi pasportiga talabgor demontaj qilish talabini bajarmagan taqdirda, Hokimiyat o'z hisobidan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni demontaj qilishi hamda demontaj qilish, atrof-muhitni obodonlashtirish, saqlash, tashish xarajatlarini belgilangan miqdorda Reklama joyi pasportiga talabgordan undirishga haqli;

2.1.1.15. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni boshqa shaxslarga foydalanish uchun bergan taqdirda (ijara shartnomasi, bepul foydalanish va h.k.), Reklama joyi pasportiga talabgorning majburiyatlari yangi foydalanuvchiga o'tmaydi, Reklama joyi pasportiga talabgor o'z majburiyatlarini mustaqil ravishda bajarishi shart. Reklama joyi pasportiga talabgor yangi foydalanuvchini Shartnoma shartlari haqida ogohlantirishi shart;

2.1.1.16. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning texnik holati va tashqi ko'rinishini nazorat qilish, ularni ta'mirlash, yuvish va bo'yash ishlarini o'z vaqtida bajarish, ularni texnik hujjatlar talablariga mos holatda saqlash. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning deformatsiyasiga, korroziya izlariga, bo'yoqning ajralishiga, boshqa shikastlanishiga, ularning

ustunlarida e'lonlar, varaqalar va boshqalar joylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik.

Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan tegishli texnik va tashqi holatda saqlanishini quyidagi holatlar anglatadi:

tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) va ularning elementlarining yaxlitligi;

mexanik shikastlanish alomatlari yo'qligi;

reklama axboroti maydoni materiallari yirtilmaganligi;

karkasni bo'yashda nuqsonlarning yo'qligi;

tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning tashqi qismlari va elementlarida begona yozuvlar, tasvirlar, varaqalar, zang, bo'yoq po'stlog'i, ifloslanishlar va boshqalarning yo'qligi;

tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni tungi vaqtda ko'cha yoritgichlarining ishlash jadvaliga muvofiq yoritish (agar yetkazib beruvchi tomonidan zarur yoritish va elektr ta'minoti mavjud bo'lsa).

2.1.1.17. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni toza saqlash, ta'mirlash, kamchilik va nosozliklarni bartaraf etish, shuningdek, foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) yoki ularning elementlarini almashtirish, ularni o'rnatish va ishlatish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish hamda tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning ishlatilishi natijasida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash;

2.1.1.18. Kechqurun va tungi vaqtda tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning axborot maydonlari yoritilishini ta'minlash uchun mustaqil ravishda o'z mablag'lari hisobidan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni elektr tarmoqlariga ulash;

2.1.1.19. Agar tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni o'rnatishda qazish ishlarini bajarish zarur bo'lsa, mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan, belgilangan tartibda qazish ishlariga order olish uchun hujjatlarni hamda tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni o'rnatish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish;

2.1.1.20. Hokimiyat va boshqa vakolatli davlat organlarining talabiga binoan

joylashtirilgan ijtimoiy axborotning hisobini yuritish;

2.1.1.21. Shaharda favqulodda vaziyat yuzaga kelgan taqdirda, shahar kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatmasi bo'yicha mustaqil ravishda va o'z mablag'i hisobidan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni Hokimiyat tomonidan belgilangan muddatlarda va tartibida demontaj qilish. Shahar hodisasi tugaganidan so'ng, mustaqil ravishda va o'z mablag'i hisobidan, ushbu Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida Tashqi reklama ob'ektlari reestrda (Shartnomaga 1-ilova) ko'rsatilgan reklama joyiga tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni qaytadan o'rnatib, uni ishlatishni davom ettirish;

2.1.1.22. Navoiy viloyati hududda favqulodda vaziyat yuzaga kelganligi sababli tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni faoliyati to'xtatilgan taqdirda, uni demontaj qilish ishlari tugallangan kunida Hokimiyatni bu haqda xabardor qilish;

2.1.1.23. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)da joylashtirilgan reklama axborotlarini olib tashlash va tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni ushbu Shartnomaning amal qilish muddati tugagan yoki muddatidan oldin bekor qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmay demontaj qilish;

2.1.1.24. Ushbu Shartnoma shartiga muvofiq reklama konstruksiyalarini demontaj qilish bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin, tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni demontaj qilingan kundan boshlab, 4 (to'rt) kalendar kun ichida o'z mablag'lari hisobidan atrof-muhitni obodonlashtirish, reklama joyini dastlabki holatiga keltirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish va bunday ishlar tugagan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kun davomida ushbu Shartnomaning 3-ilovasiga muvofiq tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni demontaj qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomasini Hokimiyatga yuborish.

Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) demontaj qilinganidan keyin reklama joyi maydoni yuzasi qo'shni hudud maydonining yuzasiga mos kelishi kerak, ya'ni shunga o'xshash materiallar va texnologiyalar yordamida qayta tiklanishi kerak;

2.1.1.25 Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni joylashtirish chizmasiga o'zgartirishlar kiritilganida tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalari)ni joylashtirish chizmasiga muvofiq, uning

texnologiyasini Hokimiyatning yozma talabiga va belgilangan muddatlarda o'zgartirish;

2.1.1.26. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) texnologiyasi o'zgargan taqdirda, Reklama joyi pasportiga talabgor o'zgartirishlar bo'yicha Hokimiyat bilan kelishilgan holda ruxsat beruvchi hujjatlarga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish majburiyatini oladi;

2.1.1.27. Hokimiyatning yozma so'roviga ko'ra 3 (uch) ish kuni ichida yer qazish ishlariga ruxsatnomalar va tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni o'rnatish va ulardan foydalanish uchun rasmiylashtirilishi zarur bo'lgan boshqa hujjatlarning nusxalarini taqdim etish;

2.1.1.28. O'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida rekvizitlar (yuridik manzili, yuridik nomi, huquqiy-tashkiliy shakli, bank rekvizitlari va boshqa) o'zgarganligi to'g'risida Hokimiyatni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

Bunday holda, tomonlar shartnomaga ushbu o'zgarishlarni aks ettiruvchi qo'shimcha bitim tuzadilar.

Ushbu bandning birinchi qismida ko'rsatilgan qo'shimcha bitim imzolanishiga qadar Hokimiyat tomonidan ushbu Shartnomada ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha yuborilgan bildirishnomalar, xatlar va boshqa yozishmalar, ular olinganligidan qat'i nazar, Reklama joyi pasportiga talabgor tegishli tartibda xabardor qilingan hisoblanadi.

Hokimiyat bildirishnomalarini elektron pochta orqali (shartnomada ko'rsatilgan manzilga) yuborganligi, tomonlarning tegishli xabarnomani yetkazib berishning tegishli usuli sifatida tan olinadi;

2.1.1.29. Navoiy viloyati hududidagi tashqi reklama ob'ektlarining namunaviy to'plami"ga muvofiq tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)da Reklama joyi pasportiga talabgorning nomi, telefon raqami, reklama maydoni raqami ko'rsatilgan ma'lumotlarni joylashtirish;

2.1.1.30. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni demontaj qilish, atrof-muhitni obodonlashtirish, tashish va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni Hokimiyatning xatida ko'rsatilgan miqdorda va rekvizitlarga muvofiq to'liq qoplash;

2.1.1.31. Shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga

bermaslik.

Reklama joyi pasportiga talabgor uchinchi shaxslarning tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ga huquqlari (tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni ijaraga berish, tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni oddiy sheriklik shartnomasi bo'yicha hissa sifatida qo'shish, ishonchli boshqaruv shartnomasini tuzish va boshqalar) paydo bo'lganligi bo'yicha tegishli huquqlar yuzaga kelgan paytdan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay barcha faktlar to'g'risida Hokimiyatni xabardor qilishi shart;

2.1.1.32. Pochta, faks, elektron, telefon, shu jumladan, mobil yoki boshqa aloqa vositalari orqali Hokimiyat yoki boshqa vakolatli davlat Hokimiyati organlari tomonidan yuborilgan talabnomaga muvofiq, talabnoma kelib tushgandan boshlab 5 (besh) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda; tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) yoki ularning elementlari qulashi natijasida xavfsizlikka tahdid soladigan favqulodda vaziyatning oldini olish yoki uni bartaraf etishi shart.

Keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan shikastlangan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni imkon qadar qisqa vaqt ichida, lekin favqulodda holat aniqlangan paytdan boshlab 8 (sakkiz) soatdan kechiktirmay to'liq demontaj qilishni amalga oshirish;

2.1.1.33. Kunduzi va tunda raqamli tasvirni o'zgartirishdan foydalanadigan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talabiga, belgilangan yoritish darajasini standartlashtirilgan ko'rsatkichlariga mos kelishi, shuningdek, atrof-muhitdagi binolarning funksional maqsadini hisobga olishi kerak.

Haddan tashqari yorqinlikning salbiy oqibatlar ham texnik va boshqa cheklovchilar yordamida tuzatilishi kerak.

2.1.1.34. Hokimiyat tomonidan talab qilingan taqdirda, hokimiyat tomonidan belgilangan muddatlarda o'rnatilgan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning umumiy ko'rinishi va yaqindan olingan fotosuratlarini taqdim etish. Taqdim etilgan fotosuratlar, agar hokimiyat so'rovida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, hokimiyat so'rovi olingan kundan kechiktirmasdan suratga olinishi kerak.

2.1.1.35. Har 3 (uch) yilda kamida 1 (bir) marta o'z mablag'lari hisobidan

ishlatilayotgan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiya)ni rejali tekshiruvdan o'tkazish.

2.1.1.36. Hokimiyatga kamida 3 (uch) yilda bir marta rejali tekshirish natijalari bo'yicha foydalanilayotgan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiya)ning texnik hujjatlari va xavfsizlik talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi ekspert xulosasi (tegishli litsenziyaga ega tashkilot tomonidan taqdim etilgan) nusxasini taqdim etish.

2.1.1.37. Reklama joyi pasportiga talabgor ijtimoiy axborotni hokimiyat yo'riqnomasida aniq belgilangan muddatlarda va hokimiyat taqdim etgan ijtimoiy axborot materiallariga muvofiq joylashtirishi shart. Ijtimoiy axborot materiallarini joylashtirish muddati tugagandan so'ng, reklama joyi pasportiga talabgor ushbu ijtimoiy axborotni ko'rsatishni to'xtatishi kerak.

Hokimiyat tomonidan taqdim etilgan materiallarga mos kelmaydigan ijtimoiy axborotlarni joylashtirish ijtimoiy axborotlarni joylashtirmaslik fakti hisoblanadi.

Agar reklama joyi pasportiga talabgorning aybisiz ijtimoiy axborot materiallarining namoyish qilishga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa, Reklama joyi pasportiga talabgor bu haqda hokimiyatni ijtimoiy axborot materiallarini keyingi joylashtirish bo'yicha tegishli qaror qabul qilishi uchun darhol (bir soat ichida) xabardor qilishi shart.

2.1.1.38. Ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa majburiyatlarni tegishli tartibda bajarish.

2.1.1.39. Reklama joyi pasportiga talabgor O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

2.1.2. Reklama beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

2.1.2.1. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiya)ni o'rnatish va ulardan foydalanish uchun ruxsatnomalarni olgandan so'ng, tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiya)ni o'rnatish va ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida ulardan foydalanish;

2.1.2.2 Reklama joyi pasportiga talabgor reklama joyi pasportisiz tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiya)ni o'rnatish yoki foydalanish huquqiga ega emas;

2.1.2.3. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni tashqi reklama ob'ektlari reestrda (ushbu Shartnomaga 1-ilova) ko'rsatilgan o'rnatish manzili bo'yicha o'rnatib undan foydalanish imkoniyati bo'lmaganida, hokimiyat bilan kelishilgan holda, uni vaqtincha boshqa joyga o'rnatishi mumkin, lekin o'n ikki oydan ortiq bo'lmagan muddatga;

2.1.2.4. Hokimiyat bilan kelishilgan holda, tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ga IoT (Internet of things) qurilmalari, ob-havo sensorlari, videokuzatuv kameralari va umumiy foydali maqsadlar uchun boshqa qurilmalarni joylashtirish.

2.2. Hokimiyatning huquq va majburiyatlarga ega:

2.2.1. Hokimiyatning majburiyatlari quyidagilar:

2.2.1.1. Shartnoma bo'yicha faoliyatni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirish;

2.2.1.2. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni muddatidan oldin (yo'llarni, maydonlarni rekonstruksiya qilish, qurilish yoki tuproq ishlari va boshqa sabablarga ko'ra) pasportga muvofiq joylashtirish muddati tugagunga qadar tomonlarga bog'liq bo'lmagan hollarda demontaj qilinganida, hokimiyat demontaj qilingan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni joylashtirish uchun oldindan amalga oshirilgan yig'im to'lovlarini boshqa tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) uchun hisobga oladi;

2.2.1.3. Reklama joyi pasportiga talabgorga tashqi reklama ob'ektlari reestriga (ushbu Shartnomaga 1-ilova) muvofiq, reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda belgilangan majburiyatlarni bajarish sharti bilan reklama joyi pasportlarini berish.

2.2.2. Hokimiyat quyidagi huquqlarga ega:

2.2.2.1. Reklama joyi pasportiga talabgorning Shartnoma shartlariga rioya qilishini, tashqi reklama ob'ektlarini texnik holatini, maqsadga muvofiq ishlatilayotganligini va tashqi ko'rinishini nazorat qilish;

2.2.2.2. Agar tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning texnik holatida yoki tashqi ko'rinishdagi nomuvofiqligi, shuningdek, ushbu Shartnoma shartlarini buzgan holda undan foydalanish faktlari aniqlansa, Reklama joyi pasportiga talabgorga muddatini ko'rsatgan holda ularni bartaraf etish bo'yicha

majburiy talabnomalarni yuborish;

2.2.2.3. Reklama joyi pasportiga talabgorga ushbu Shartnomada va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy joylashtirilishi uchun ijtimoiy axborotlarni o'z ichiga olgan materiallarni yuborish;

2.2.2.4. Reklama konstruksiyasi Shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini buzgan holda o'rnatilgan bo'lsa, Reklama joyi pasportiga talabgordan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni demontaj qilishni talab qilish;

2.2.2.5. Reklama joyi pasportiga talabgordan reklama konstruksiyasini texnik xizmat ko'rsatishga yaroqliligini ta'minlashni talab qilish;

2.2.2.6. Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligini buzgan holda o'rnatilgan yoki foydalanilayotgan reklama konstruksiyasini demontaj qilish talabi belgilangan muddatlarda bajarilmagan taqdirda, reklama konstruksiyasini demontaj qilishni amalga oshirish. Shu bilan birga, hokimiyat reklama konstruksiyalarini demontaj qilish natijasida yetkazilgan zararlar uchun Reklama joyi pasportiga talabgor oldida javobgar bo'lmaydi;

2.2.2.7. Reklama konstruksiyalarini demontaj qilish, tashish, saqlash, utilizatsiya qilish (yo'q qilish) bo'yicha ishlarni amalga oshirishda Reklama joyi pasportiga talabgordan reklama konstruksiyalarini demontaj qilish, tashish, saqlash, utilizatsiya qilish (yo'q qilish) bo'yicha xarajatlarni xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlangan tariflar bo'yicha qoplanishini talab qilish;

2.2.2.8. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning texnik holati va tashqi ko'rinishini monitoring qilib borish, o'rnatilgan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ning pasport talablariga, ushbu turdagi konstruksiyalar uchun belgilangan texnik shartlarga mos kelmasligi va boshqa qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, Hokimiyat vakolatli organga reklama joyi pasportiga talabgorga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar ko'rishni so'rab ariza bilan murojaat qilish, shuningdek, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan choralarni ko'rish;

2.2.2.9. Agar Reklama joyi pasportiga talabgor hokimiyatning bildirishnomasida belgilangan muddatda ixtiyoriy ravishda demontaj qilish

bo'yicha talablarini bajarmasa, hokimiyat belgilangan muddatdan keyin o'z mablag'lari hisobidan tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni demontaj qilish, atrof-muhitni obodonlashtirish, tashish va xavfsiz saqlash huquqidan foydalangan holda demontaj qilish, tashish va xavfsiz saqlash ishlarini amalga oshirish;

Reklama joyi pasportiga talabgor dan regress tartibida demontaj qilish, tashish, saqlash va atrof-muhitni obodonlashtirish xarajatlarini qonunchilikda belgilangan tartibda yoki sud tartibida undirish;

2.2.2.10. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi) uchun maqbul ish vaqtini belgilash;

2.2.2.11. Reklama joyi pasportiga talabgor Shartnomada va "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda, Navoiy viloyati hokimining qaroriga muvofiq reklama joyi pasportini bekor qilish va reklama joyi pasportiga talabgorga yozma bildirishnoma yuborish orqali, shu jumladan, elektron tizimlardan foydalangan holda, Shartnomani bekor qilish;

2.2.2.12. Reklama joyi pasportiga talabgor bilan kelishilgan holda unga tegishli tashqi reklama va axborot ob'ekt (konstruksiya)larida IoT (Internet of things) qurilmalari, ob-havo datchiklari, videokuzatuv kameralari va umumiy foydali maqsadlardagi boshqa qurilmalarni bepul joylashtirish;

2.2.2.13. Qonunchilikda belgilangan tartibda Reklama joyi pasportiga talabgordan ushbu Shartnomadan kelib chiqib kechiktirilgan to'lovlar va jarimalar bo'yicha qarzdorlikni qonunchilikda belgilangan tartibda yoki sud tartibida undirish;

2.2.3. Hokimiyat O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega.

3. Shartnoma bo'yicha to'lovlar va hisob-kitoblar

3.1. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'im reklama vositalarining turiga, reklama vositalarini joylashtirishning hududiy zonasiga qarab belgilanadi va elektron savdo maydonchasi orqali ochiq elektron kim oshdi savdosi natijalariga ko'ra belgilanadi. Xususiylashtirilgan yer uchastkalarida, shuningdek xususiy mulk bo'lgan bino va

inshootlarda tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'im Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlangan tarif bo'yicha belgilanadi. Tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'im miqdori O'zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorida (BHM) belgilanadi.

3.2. Shartnoma bo'yicha tashqi reklama va axborot ob'ekti (konstruksiyasi)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'im quyidagicha belgilanadi:

elektron savdo maydonchasi orqali ochiq elektron kim oshdi savdosi natijalari bo'yicha elektron kim oshdi savdosi natijalari bo'yicha bayonnomada ko'rsatilgan qiymat miqdorida;

xususiylashtirilgan yer uchastkalari, shuningdek xususiy mulk bo'lgan bino va inshootlarda, shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli Qaroriga muvofiq muddati uzaytirilgan pasportlar bo'yicha Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq.

Shartnoma bo'yicha yig'im to'lovi miqdori Shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan. Agar BHM miqdori o'zgarsa, Shartnomaga o'zgartirishlar kiritilmasdan, undirish BHM miqdori o'zgargan kundan boshlab yangi tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

3.3. Reklama joyi pasportiga talabgor ushbu Shartnomada nazarda tutilgan yig'im to'lovini har chorakda, keyingi chorak uchun oldindan to'lash yo'li bilan o'tayotgan chorakning oxirgi oyining 25-kunidan kechiktirmay, hokimiyat tomonidan billing tizimi orqali taqdim etilgan invoyslar asosida pul o'tkazish yo'li bilan to'lashi shart.

3.4. Shartnoma bo'yicha yig'imni to'lash hokimiyat tomonidan billing tizimidan foydalangan holda reklama joyi pasportiga talabgorga yuboriladigan invoys asosida amalga oshiriladi.

3.5. Shartnoma bo'yicha yig'imning birinchi to'lovi hokimiyatdan invoys olingan kundan boshlab 5 (besh) kundan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak. Hokimiyat tomonidan berilgan invoysga asosan birinchi to'lov to'liq amalga oshirilgan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi va shartnomaga aksept olingan hisoblanadi. Shartnoma bo'yicha birinchi chorak to'lovni amalga

oshirgandan so'ng, Reklama joyi pasportiga talabgorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevraldagi 104-son "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartibda YaIDXP tizimi orqali reklama joyi pasportlari beriladi.

3.6. Shartnoma bo'yicha to'lov tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalar) o'rnatilganligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar to'lanadi.

3.7. Hokimiyat IoT (Internet of things) qurilmalari, ob-havo datchiklari (ko'rsatkichlari), videokuzatuv kameralari va umumiy foydali maqsadlar uchun boshqa qurilmalarni joylashtirgan Reklama joyi pasportiga talabgorlarga ma'lum bir tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalar) uchun ularni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun to'lovning bir qismini to'lashdan ozod qilish tarzidagi rag'batlantirish choralarini qo'llashga haqli. Rag'batlantirish choralarini miqdori va muddatlari Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi tomonidan belgilanadi hamda tomonlar mazkur Shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzish orqali rasmiylashtiradi.

4. Tomonlarning javobgarligi

4.1. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek ushbu Shartnoma shartlarini buzganlik uchun, tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalar) bilan fuqarolarning sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiga yetkazilgan zarar uchun Reklama joyi pasportiga talabgor amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan to'lovlarni to'lash kechiktirilgan taqdirda, Reklama joyi pasportiga talabgor bunday to'lovni kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 % miqdorida, lekin to'lanmagan summaning 50 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashi shart.

4.3. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalar)ni tegishli holatda saqlash, ularni o'z vaqtida ta'mirlash, tozalash, bo'yash, ularni demontaj qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirgandan so'ng reklama joyini tegishli holatga keltirish bo'yicha majburiyatini buzganda, shuningdek, tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiyalar)ni o'z vaqtida tegishli holatga keltirish bo'yicha Hokimiyatning talablarini bajarmagan taqdirda, Reklama joyi pasportiga talabgor boshqa ma'muriy jazolardan tashqari Hokimiyatning talabiga binoan har bir qoidabuzarlik uchun BHMning 20 (yigirma)

baravari miqdorida jarima to'laydi hamda hokimiyat tomonidan belgilangan talablarni bajarmaslik/to'g'ri bajarmaslik natijasida yuzaga kelgan huquqbuzarliklarni bartaraf etish uchun sarflangan xarajatlarni qoplaydi.

4.4. Reklama joyi pasportiga talabgor tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni yoki uning elementlarini o'rnatish, ishlatish yoki demontaj qilish jarayonida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun to'liq javobgar bo'ladi.

4.5. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni ushbu reklama joyi uchun pasport bo'lmagan hollarda o'rnatilgan, yoki ekspluatatsiya qilingan taqdirda, Reklama joyi pasportiga talabgor hokimiyat talabiga binoan har bir konstruksiya uchun BHMning 20 (yigirma) barobari miqdorida jarima to'laydi.

4.6. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)da reklama ma'lumotlari mavjud bo'lmagan taqdirda, reklama joyi pasportiga talabgor Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlaridan ozod etilmaydi.

4.7. Tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ning tuzilmaviy elementlariga yoki boshqaruv qurilmalariga ruxsatsiz kirish, natijada tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni shikastlanishi, unda kontentning ruxsatsiz joylashtirilishi uchun javobgarlik reklama joyi pasportiga talabgorga yuklanadi.

4.8. Reklama joyi pasportiga talabgor oldida tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni o'rnatish yoki undan foydalanishning ob'ektiv imkonsizligidan kelib chiqadigan zararlar uchun javobgar emas.

5. Fors-major

5.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilona chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favquloddagi voqealar tufayli sodir bo'lgan bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong'in, zilzila, davlat organlari harakatlari yoki harakatsizligi, epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh. k. tushuniladi.

5.2. Agar fors-major holatlari 3 (uch) oydan ortiq davom etsa, har bir Tomon Shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishni rad etishga haqli, shu bilan birga hech

bir Tomon boshqa tomondan fors-major holatlari tufayli yetkazilgan zararni qoplashni talab qila olmaydi.

5.3. Fors-major holatlari tufayli yuzaga keladigan oqibatlar uchun Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha hech qanday javobgarlikni o'z zimmalariga olmaydilar.

5.4. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini yengib bo'lmay kuch holatlari tufayli bajara olmaydigan tomon boshqa tomonni o'z majburiyatlarini bajarishga to'sqinlik qiladigan fors-major holatlarining boshlanishi yoki tugashi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart.

6. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

6.1. Shartnoma ushbu shartnoma va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

6.2. Hokimiyat quyidagi hollarda ushbu Shartnomani suddan tashqari bekor qilishga, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni rad etishga haqli:

a) to'lovni kechiktirish 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq bo'lsa, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan muddatda to'lanmagan bo'lsa;

b) tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ning ushbu turdagi konstruksiylar uchun belgilangan pasport yoki texnik shartlar va xavfsizlik qoidalariga nomuvofiqligini bartaraf etish to'g'risidagi talabga rioya qilmaslik;

v) Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni joylashtirish yoki ulardan foydalanish shartlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini qo'pol ravishda buzganligi, tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)da ishonchsiz va nomuvofiq reklama joylashtirilganligi sababli vakolatli organning Shartnomani bekor qilish to'g'risidagi ko'rsatmalari mavjud bo'lganida;

g) Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan ushbu Shartnomaning 2-bo'limida nazarda tutilgan majburiyatlarni takroran (shartnoma amal qilish yili davomida ikki yoki undan ortiq marta) bajarmaslik (to'liq yoki o'z vaqtida bajarmaslik).

6.3. Shartnoma bekor qilinganidan so'ng, Shartnoma bo'yicha olingan reklama joyi pasportlari o'z kuchini yo'qotadi.

6.4. Hokimiyat tashabbusi bilan ushbu Shartnoma bir tomonlama bekor qilingan taqdirda, Hokimiyat Reklama joyi pasportiga talabgorga Shartnomani

bekor qilish sanasini ko'rsatgan holda uni bekor qilish to'g'risida 15 (o'n besh) kun oldin xabar yuboradi.

6.5. Hokimiyat bir tomonlama tartibda ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega, bu haqda Reklama joyi pasportiga talabgorga ushbu o'zgarishlarni "Tashqi reklama" elektron tizimidagi axborot xabarlarida, Toshkent shahar hokimligining veb-saytida e'lon qilish orqali ma'lum qiladi.

7. Korrupsiyaga qarshi shartlar

7.1. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablari buzilishiga olib keladigan yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan, (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, tamagirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti - harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

7.2. Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishda, shu jumladan, pul summalari, sovg'alar taqdim etish, xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatga ega vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

7.3. Hokimiyatda ushbu shartnomaning 7.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, Hokimiyat bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa — amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan Shartnomaning ushbu bo'limida taqiqlangan harakatlarni bajarishdan bosh tortish majburiyatlari buzilgan yoki belgilangan muddatda buzilish sodir bo'lmagani yoki ro'y bermasligi to'g'risida tasdiqnoma olinmagan taqdirda, hokimiyat Shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma xabar yuborish orqali bir tomonlama tartibda Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Hokimiyat bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan zararni

Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan qoplanishini talab qilishga haqli.

8. Boshqa shartlar

8.1. Mazkur Shartnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 357-moddasiga muvofiq, tomonlar o'rtasida tuzilgan Shartnoma shartlari Shartnoma tuzilgunga qadar, ya'ni reklama pasportlari Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qaroriga muvofiq ilgari olingan yoki uzaytirilgan kundan boshlab yuzaga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi belgilab olinadi. Shartnomani o'z mohiyatiga ko'ra Shartnoma muddati tugagan yoki tugatilgandan keyingi davrdagi Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallangan Shartnoma shartlari (shu jumladan, reklama tuzilmalarini demontaj qilish, saqlash, yo'q qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash va h.k.), Shartnoma tugagandan yoki bekor qilinganidan keyin ham o'z kuchini saqlab qoladi.

8.2. Shartnoma tashqi reklama va axborot ob'ektlari (konstruksiylar)ni joylashtirish va ulardan foydalanish huquqi uchun yig'im to'lash uchun asos hisoblanadi.

8.3. Shartnomada bevosita nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

8.4. Huquqlar yoki majburiyatlar qonun asosida boshqa shaxslarga meros yoki boshqacha tarzda o'tgan taqdirda, tomonlar bu haqda bir-birlarini elektron aloqa orqali bunday holat yuzaga kelgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida xabardor qilishlari shart. Bunday holda, xabardor qiluvchi tomon (uning huquqiy vorisi) huquq yoki majburiyatlarni o'tkazish uchun asoslarni ko'rsatishi va ishonchli tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarini ilova qilishi shart.

8.5. Ushbu Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida hujjat aylanishi "Tashqi reklama" elektron tizimidagi Reklama joyi pasportiga talabgorning shaxsiy kabineti orqali elektron o'zaro aloqa orqali amalga oshiriladi, hujjatlarning boshqa usullar bilan aylanishi bundan mustasno emas. Reklama joyi pasportiga talabgor tomonidan joylashtirilgan ijtimoiy axborotni hisobga olish, to'lovlarni to'lash va Shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasidagi boshqa munosabatlar "Tashqi reklama" elektron tizimi orqali amalga oshiriladi.

8.6. Ushbu shartnomani imzolash orqali reklama joyi pasportiga talabgor ushbu Shartnomaning barcha shartlariga so'zsiz roziligini tasdiqlaydi va uni

bajarish majburiyatini oladi.

9. Tomonlarning rekvizitlari

Hokimiyat

Manzil:

Bank:

H/r:

MFO:

STIR:

Sh/hr:

MFO:

STIR:

Tel.:

Reklama joyi pasportiga talabgor

Manzil: _____

Bank: _____

H/r: _____

MFO: _____

STIR: _____

Tel.: _____

Direktor: _____

M.O'.

**Tashqi reklama ob'ektlariga
(konstruksiylariga) tashqi reklamani
o'rnatish uchun taklif etiladigan
ShARTNOMAning namunaviy shakliga
1-ilova**

№ _____ « _____ » _____ 20__ y.

Tashqi reklama ob'ektlari ro'yxati

T/R	Joyning IDsi	Pasportning raqami, sanasi, amal qilish muddati va olish usuli	Hududi, manzili (geopozitsiya)	Konstruksiya turi va joylashuvi	Tomonlar miqdori	Hajmi, maydoni, yon texnologiyasi, 1 kv.m uchun oylik to'lov			Umumiy maydoni	1 kv.m. uchun oylik yig'im miqdori	Umumiy maydoni oylik yig'im miqdori *
						1-tomon	2-tomon	3-tomon			

* * Agar BHM (bazaviy hisoblash miqdori) o'zgarsa, oylik yig'im miqdori

mutanosib ravishda o'zgaradi.

Reklama konstruksiyasini o'rnatish Dalolatnomasi shakli

**Tashqi reklama ob'ektlariga
(konstruksiyalariga) tashqi reklamani
o'rnatish uchun taklif etiladigan
ShARTNOMAning namunaviy shakliga
2-ilova**

№ _____ « _____ » _____ 20__ y.

Reklama konstruksiyasini o'rnatish Dalolatnomasi

Navoiy sh.

« _____ » _____ 20__ y.

_____ (keyinchalik – Reklama tarqatuvchi),
tomonidan _____

_____ asosida ish yurituvchi, Shartnomaga muvofiq – reklama konstruksiyasining ishlatish shartlari hamda Toshkent shahrida tashqi reklamani joylashtirish va undan foydalanish huquqi uchun haq to'lash tartibi to'g'risidagi ommaviy shartnoma № ____ (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb yuritiladi)ga asosan, quyidagilar to'g'risida ushbu akti tuzdilar.

1. Reklama konstruksiyasi o'rnatildi:

Tashqi reklama ob'ektlari reestriga muvofiq o'rnatish joyining manzili:
_____;

Reklama konstruksiyasi turi: _____;

Texnologik tavsifnoma (xarakteristika)lar: _____;

Tashqi reklama ob'ektlari reestridagi raqam: _____;

Reklama maydoni raqami _____.

2. O'rnatish sanasi _____.

3. Reklama konstruksiyasi o'rnatilgandan so'ng, Reklama tarqatuvchisi o'rnatish joyida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi.

4. Reklama konstruksiyasini oʻrnatish fakti ___ varaqdagi fotosuratlar bilan tasdiqlanadi.

Reklama tarqatuvchi

Lavozimi _____

(imzo, ismi-sharfi toʻliq)

«___» _____ 20__ y

M.Oʻ. (mavjud boʻlgan taqdirda)

Reklama konstruksiyasini demontaj qilish Dalolatnomasi shakli

**Tashqi reklama ob'ektlariga
(konstruksiyalariga) tashqi reklamani
o'rnatish uchun taklif etiladigan
ShARTNOMAning namunaviy shakliga
3-ilova**

№ _____ « _____ » _____ 20__ y.

Reklama konstruksiyasini demontaj qilish Dalolatnomasi

Navoiy sh.

« _____ » _____ 20__ y.

_____ (keyinchalik –
Reklama tarqatuvchi), tomonidan

_____ asosida ish yurituvchi, Shartnomaga muvofiq
– reklama konstruksiyasining ishlatish shartlari hamda Toshkent shahrida tashqi
reklamani joylashtirish va undan foydalanish huquqi uchun haq to'lash tartibi
to'g'risidagi ommaviy shartnoma № ____ (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb
yuritiladi) ga asosan, quyidagilar to'g'risida ushbu akti tuzdilar.

1. Reklama konstruksiyasi demontaj qilindi:

Tashqi reklama ob'ektlari reestriga muvofiq o'rnatish joyining manzili:

_____;

Reklama konstruksiyasi turi: _____;

Tashqi reklama ob'ektlari reestridagi raqam: _____;

Reklama maydoni raqami _____.

2. Demontaj sanasi _____.

3. Demontaj sababi: _____.

4. Reklama konstruksiyasi demontaj qilinganidan so'ng, Reklama tarqatuvchisi
o'rnatish joyida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirdi.

5. Reklama konstruksiyasini demontaj fakti ___ varaqdagi fotosuratlar bilan tasdiqlanadi.

6. Reklama konstruksiyasini oʻrnatish va ishlatish imkoni yoʻqligi ___ varaqdagi fotosuratlar bilan tasdiqlanadi.

Reklama tarqatuvchi

Lavozimi


(imzo, ismi-sharfi toʻliq)

«___» _____ 20__ y


M.Oʻ. (mavjud boʻlgan taqdirda)

Xalq deputatlari Navoiy viloyat
Kengashining
2024-yil 19-fevraldagi
VI-68-14-5-0-K/24-son qaroriga
5-ilova


Navoiy viloyatida tashqi reklama va axborot ob'ektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmalari



Siti format- avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m*1.8m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi



Bayroqchali - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.5m*1.8m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Ma'lumotlar stendi - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (4.0m*2.0m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Axborot ko'rsatkichlar - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi kichik turdagi (1.1m*1.8m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Pilon - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi o'rta turdagi (1.4m*2.8m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Uch burchak ustunli - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi o'rtaturdagi (1.4m*3.0m o'lchamdagi) uch tomonlama reklama vositasi




Senior - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi o'rta turdagi (4.0m*3.0m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi





Aylana ustunli - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi o'rta turdagi (2.3m*4.7m o'lchamdagi) aylana reklama vositasi




Stella - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi o'rta turdagi (1.5-2.0m*3.0-15m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Bilbord - avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (6.0m*3.0m o'lchamdagi) ikki tomonlama reklama vositasi




Bilbord plus- avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (8.0m*4.0m o'lchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritgichli reklama vositasi



Super sayt- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi katta turdagi (5.0m*10.0m o‘lchamdagi) ikki tomonlama tunda yoritgichli reklama vositasi



Brendmauer pano- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tashqi qismida katta turdagi (5.0-10m*10.0-20 m o‘lchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi




Tom usti reklama konstruktsiyasi- avtomobil yo‘li hamda piyodalarga qarab turuvchi binoning tom qismida katta turdagi bir tomonlama (tunda yoritgichli) reklama vositasi



LED monitor- avtomobil yo'li hamda piyodalarga qarab turuvchibinoning tashqi qismida katta turdagi (3,0-5,0m*6,0-10,0 m o'lchamdagi) bir tomonlama reklama vositasi.

Yuqoridagi tashqi reklama konstruksiyasida konstruksiya egasi nomi, telefon raqami, reklama vositasi raqami va QR kodi bo'lishi shart

Bayroqchalik reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*




1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.

4. Svetoforlar va yo‘l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo‘l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob’ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo‘lning bir tomonida joylashgan ob’ektlar uchun ko‘rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Siti format reklama vositasining o‘rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob’ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo‘lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo‘l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo‘l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob’ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo‘lning bir tomonida joylashgan ob’ektlar uchun ko‘rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Ma'lumotlar stendi reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Axborot ko'rsatkichlar reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'лакchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Pilon reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Uch burchak ustunli reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'лакchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Senior reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Aylana ustunli reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa o'rta formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*


Stella reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 1.5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 2 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa kichik formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 50 m.
7. Chorrahalarigacha kamida 5 m

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Bilbord reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*




1. Daraxt tanasidan kamida 5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 10 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa katta formatdagi tashqi reklama ob'ektlari(konstruksiyalari)dan kamida 100 m.

Eslatma:

Konstruksiya turar-joy binolaridan 10 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi kerak.

Bilbord plyus reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*




1. Daraxt tanasidan kamida 5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 15 m.
3. Boshqa juda katta formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 150 m.
4. Piyodalar yo'lakchalaridan, svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 15 m.

Eslatma:

Konstruksiya turar-joy binolaridan 15 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi kerak.

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Super sayt reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*




1. Daraxt tanasidan kamida 5 m.
2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 15 m.
3. Boshqa juda katta formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 150 m.
4. Piyodalar yo'lakchalaridan, svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 15 m.

Eslatma:

Konstruksiya turar-joy binolaridan 15 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi kerak.

**Masofalar yo'lining bir tomonida joylashgan ob'ektlar uchun ko'rsatilgan. Masofalar konstruksiyaning chetidan hisoblanadi.*

Brendmauer pano reklama vositasining o'rnatilish chizmasi*



1. Asosan jamoat binolari bo‘lgan hududlarda.
2. Yer sathidan 4 m dan yuqori.
3. Daraxtlardan 10 m uzoqlikda.
4. Brandmauerli pannoni turar-joy binolari derazalaridan, maktabgacha, umumiy va oliy ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash muassasalari, aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning statsionar muassasalari egallagan ob’ektlardan, agar konstruksiya joylashgan joyiga masofa 50 m dan kam bo‘lsa, ko‘rish chizig‘iga joylashtirish taqiqlanadi.


Eslatma:^[1]_{SEP}

Turar-joy binosiga brandmauerli pannoni o‘rnatishda bino aholisidan ruxsat olish kerak.

Tom usti reklama vositasining o‘rnatilish chizmasi*



Led monitor reklama vositasining oʻrnatilish chizmasi*



1. Daraxt tanasidan kamida 5 m.

2. Avtobus pavilonlari va nostandart savdo ob'ektlaridan kamida 10 m.
3. Piyodalar yo'lakchalaridan kamida 5 m.
4. Svetoforlar va yo'l belgilaridan kamida 5 m.
5. Yon toshlar qirrasidan yoki yo'l chetidan kamida 0,5 m.
6. Boshqa katta formatdagi tashqi reklama ob'ektlari (konstruksiyalari) dan kamida 100 m.

Eslatma:

*Konstruksiya turar-joy binolaridan 10 metrdan kam bo'lmagan masofada joylashtirilishi kerak.